



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

RAJABOVA XOSIYAT HAMID QIZIning

**«ADABIYOT DARSLARIDA CHO‘LPON HAYOTI VA
IJODINI O‘RGATISH»**

mavzuidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2014



Malakaviy bitiruv ishi O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishining 2014-yil
«___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:

f.f.n. dots. G.Qurbaniyazov

Kafedra mudiri:

f.f.n. S.Matyakubov

Ilmiy rahbar:

f.f.n.dots. F.Salaev

S.Bekchanova

Bitiruvchi:

X.Rajapova

Rajabova Hosiyatning «Adabiyot darslarida Cho'lpon hayoti va ijodini o'rgatish» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo'yildi.

«___» _____ 2014-yil

DAK kotibi:

R.Yendirbayev

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. 7-SINFLARDA CHO‘LPON SHE‘RLARINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH.....	10
II BOB. 9-SINFLARDA CHO‘LPONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI.....	34
XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	58

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» risolasida yozgan: «...biz yurtimizda erkin, demokratik jamiyat poydevorini barpo etish yo'lida yangicha ruhda o'sib ulg'ayayotgan navqiron avlodni voyaga etkazmoqchimiz...O'zbek tili, adabiyoti bu borada qanday rol o'ynashi kerak? Ona tilimizni, badiiy tafakkurimizni rivojlantirish orqali xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida yana qanday ishlarni qilishimiz zarur?»¹ –degan fikrlari adabiyot o'qituvchilari hamda soha mutaxassislarini bu masalaga jiddiy e'tibor berishga da'vat etadi.

Shuningdek, risoladagi: «XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga. Biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muommolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchilarning bashariyatning ertangi kunini o'ylab. Odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'ri kenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda»- deya ijodkorlarga qilgan murojati ham bevosita adabiyot o'qituvchilarga daxldordir. Zero, ijodkor yaratgan asarni o'rgatish adabiyotga mehr uyg'otish, badiiy asar o'qishga qiziqtirish, o'quvchi ruhiyatini tarbiyalash, ma'naviyatini yuksaltirish kabi yumushlar asosan maktabda amalga oshiriladi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish markazida turgan o'qituvchi davlatning, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa topshirilgan eng aziz, eng e'zozli insondir. O'z oldiga yoshlar ma'naviyatini shakllantirishday maqsadni qo'ygan o'qituvchi shaxsi adabiy ta'limda muhim o'rin tutadi. Zero, ma'naviyat-faqat bilim degani emas. uni oliy ma'lumotga ega bo'lgan har qanday mutaxassis ham yoshlarga tarkib toptira olmaydi. Buning uchun o'qituvchining o'zida yuqori darajadagi kasbiy mahorat bilan birgalikda ma'naviy fazilatlar ham bo'lishi shart. Ma'naviy sifatlar adabiy ta'lim

¹ I.Karimov "Adabiyotga e'tibor –ma'naviyatga, kelajakka e'tibor." Toshkent.O'zbekiston,,2009

jarayonida, shaxsdan-shaxsga, qalbdan-qalbga bevosita ko'chadigan eng kuchli fazilatdir.

Hozirda milliy uyg'onish davri deb atayotganimiz o'tgan asr boshidagi Turkiston ijtimoiy hayotini yillar davomida mustahkam to'g'on-la tushovlangan asov daryoning o'sha to'g'onni qo'porib, shiddat-la oquviga mengzagimiz keladi. Zero, botindagi qudratning zohiriy ko'rinishi bo'lmish bu shiddat elning qalb ko'zi tiyrak o'g'lonlari dilidagi asriy umidlarni quvvatlantirib, ularni buyuk maqsadlar sari ilhomlantirgan edi. Millatning tarixiy taqdirini belgilovchi davrlarning har kuni asrlarga tatigulikdirki, vijdonli kishilarning bunday paytda shiddatli hayot oqimidan chetda turishlari aslo mumkin bo'lmagan hodisa. Bu narsa, ayniqsa, ijod ahliga tegishdir. Bunday davrlarda yashagan ijodkorlar uchun shaxsiylik va ijtimoiylik chegaralari mavjud emasdek, ularning qalbi jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga hamohang urayotgandek. Aytish mumkinki, ijodkor davr ijtimoiy hayotining barometriga aylanadi: zamondoshlarni ertangi kun havosidan, izg'irinu quyoshli kunlardan ogoh etib turishlikni o'zining vazifasi deb biladi. Albatta, bugungi kun yuksakligidan turib ularning ijodiga turlicha baho berishimiz mumkin. Ayrimlarimiz «shu tufayli ham ularning aksar asarlari vaqt sinoviga dosh berolmadi», desak-da mumkin. Biroq, mulohaza qilaylik, o'zimizni ularning o'rniga qo'yib ko'raylik. O'sha ijodkorlar qarshisida ikki turli yo'l mavjud edi: yo mangu mavzularga qo'l urib boqiylikka bo'ylovchi asarlar yaratish va yo kunning dolzarb muammolariga munosabat bildirish orqali millat, Vatan kelajagiga ta'sir etish. Shu xil tanlov imkoniyati yuzaga kelganida ko'plab ijodkorlarimiz, hatto buyuk iste'dod sohiblari-da, butun kuchu iqtidorlarini ikkinchi maqsadga yo'naltirdilar. Ana shunday fidoyi ijodkorlardan biri, shubhasiz, Abdulhamid Cho'lpondir.

Mustaqillik sharofati tufayli adabiyotimizning taraqqiyot yo'liga xolis va ilmiy nuqtai nazardan yondoshish imkoniyati tug'ildi. Prezidentimiz I.A.Karimovning: «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tkan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz

ildizlapriga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»² degan so'zlari bevosita adabiyotshunoslik masalalariga ham aloqador. Tarix – bosib o'tilgan yul. Uni xar qanday bulmasin orqaga kaytarib bulmaydi. Shuning uchun u hech vaqt qo'shib-chatilmasdan tadqiq etilishi va avlodlarga bor xaqiqati bilan etkazilishi kerak. Bugungi kundan turib, bosib o'tilgan yulga nazar tashlasak, xalqimizning ming-minglab yillik takdiri nari tursin, shu yuz yillik tarixi xam t o'la, xaqqoniy tadqiq etilmaganligiga amin bulamiz. Butun boshli xalq tarixi, xatto, ko'plab shaxslar takdiri davr to'fonlarida chalkash, xato baxolanganini kuramiz. Eng daxshatlisi shundaki, bu xatolar, chalkashliklar xalqimiz hayotining XX – asrdagi burilish nuqtalarida turgan madaniyat, san'at, adabiyot, jamiyat taraqqiyotining yaratuvchilari bo'lgan shaxslar – Behbudiy, A. Qodiriy, A. Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, F. Xo'jaev, A. Ikromov ... va boshqalar taqdiri bilan bog'liqdir.

Markaziy Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi xalqqa qimmatga tushdi – og'ir va ayanchli mustamlakachilik siyosati hukm surdi. Istilochilar yurt boyliklarini taladilar va bu boyliklar Rusiyaga tashib ketildi. Mustamlakachilik o'lkada erli xalqlarning ma'naviy qadriyatlariga - tili, dini, milliy urf-odatlariga tajovuz qildi.

Boy madaniy–adabiy merosimizni o'rganish, anglash va unga vorislik qilish ma'naviyatimizning o'zak masalalaridan. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixi va boy madaniyati bilan jahon adabiyoti xazinasiga o'z ulushini qo'shib kelgan. Shuningdek, XIX asrning II yarmi XX asr boshlaridagi tarixiy davr va adabiy hayot ana shunday g'oyat ulkan ulushdir. Negaki, bu davr tarixiga nazar tashlasak, jahon tsivilizatsiyasi beshigi sanalgan ko'hna Turkiston osmonini qora bulutlar qoplagan yillar bo'lgan. Bu yillarda, ya'ni mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan chor Rossiyasi hukmronligi davrida

² Karimov I. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Karimov I. Asarlar. 3-jild: Vatan sajdago kabi muqaddasdir.-T.: O'zbekiston, 1996.-B.7.

Turkistonda istibdodga, xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi, ona-diyorda til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlar poymol etildi.

E'tiborli olim, prof. B.Qosimov e'tirof etib o'tganlaridek, «milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi».³

Milliy uyg'onish davri adabiyoti XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy voqelikning, shu davr ilg'or ziyoli qatlamlari (jadidlar)ning yuqori saviyadagi fikru qarashlari, xatti harakatlarining badiiy ifodasi edi. Binobarin, bu davr ijodkorlarining maqsadi esa aniq: turkiy-islomiy huquqiy merosni millat ichida keng va teng yoyish, hurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun kurash edi. Shuning uchun ham ularning ijod mahsullari millatni uyg'otgan, uni istiqlolga etaklagan chinakam adabiyotga aylandi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yorqin bir sahifasidir. Professor B. Qosimov «Izlay-izlay topganim» kitobida bu davrning turli xil ko'lam va iqtidordagi 90 ga yaqin qalam ahllarining ro'yxatini keltirganlar.

To'g'ri, bulardan aksariyati utgan asrning 30-yillarida qoralangan, so'ngra, oklangan, ularga yopishtirilgan «xalq dushmani» degan yorliq olib tashlangan edi. Xali ular xayoti va ijodi o'zining tula, xolis baxosini olgani yuk. Hech kaerda ular haqida fikr yuritilmas, xatto o'rta maktab darsliklarida xam ularning nomi tilga olinmas edi. Faqat, mustaqillik sharofati bilangina ular hayoti, ijodi tadqiq etila, o'sha davrlar xaqiqati yuzaga chiqa boshladi.

Mustaqillik tufayli, bir vatlar qatagon qilingan shoirlarning adabiyot dasturlariga kiritilgani ayni muddao bo'ldi. Shular qatorida Cho'lpon ijodi ham maktab va akademik litseylarda o'qitila boshladi. Lekin Cho'lpon ijodini qanday o'qitishning y o'l-y o'riqlari hozirgacha ishlab chiqilgan emas, metodik tavsiyalar deyarli yo'q. Shuning uchun ham biz bu mavzuni malakaviy ishimizga tahlil ob'ekti qilib oldik va uni imkoniyatimiz doirasida yoritishga urinib ko'ramiz.

Avvalo bir xaqiqatni tan olib aytishimiz kerakki, Cho'lpon ijodi qanchalik ko'p o'rganilsa, uning asarlari qanchalik ko'p chop etilsa, boshqacha qilib

³ Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. (Darslik) T. Ma'naviyat, 2004. 3-bet.

aytganda u qanchalik xalqimizga kuproq yetkazilsa mustaqillikning qadri shuncha ortadi.

Cho'lpon butun ijodi davomida istiqlolni kuylab o'tgan, mustaqillikka sadoqatini xech qachon yuqotmagan shoir bo'lgan. Ayniqsa, bu ulug' shoirning mana shu fazilati yoshlarga birinchi navbatda maktab o'quvchilariga, kolaversa Oliy ta'lim talabalariga yetkazilishi zarur. Agar shoir asarlari adabiyot darslari orqali har bir o'quvchi ongiga singib borsa, u qalbidan o'tkazib o'sha asarning mohiyatini, ahamiyatini teran tushunib etsa, mustaqillikning qadriga etadi. Uning osonlik bilan kulga kiritilmaganini va avaylab, asrab saqlash lozimligini tushunadi.

Cho'lpon ijodiga, uning shaxsiyatiga xos bu xususiyatlarni, avvalo, o'qituvchi o'z qalbidan o'tkazishi, teran xis kilishi lozim. Shundagina u o'quvchiga Cho'lpon ijodining bugungi mustaqillik zamoni uchun ahamiyatini tushuntira oladi. Bu juda ma'suliyatli vazifa, lekin amalga oshirilishi shart bo'lgan talablardan biri, deb xisoblaymiz.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganiday, «O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak».

Biz maktabdagi amaliyot jarayonidagi, dars o'tish tajribalarimizdan kelib chiqib bu mavzuga qo'l urdik. Cho'lpon asarlarini o'rganishda bo'yicha adabiyot darslarida qanday usullardan foydalanish mumkinligi tug'risida ba'zi mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashish niyatida malakaviy ish mavzumizga bu masalani tanladik. Albatta, bizning ko'zatishlarimizni mutloq xaqiqat sifatida sizga taqdim qilmoqchi emasmiz. Cho'lpon ijodini boshqa usullarda ham maktabda o'rganish mumkin. Lekin biz o'zimizning nuqtai nazarimizni bayon etmoqchimiz. Balki biz tavsiya qilayotgan usul ham o'qituvchilar uchun ma'lum darajada foydali bo'lishi mumkin. Biz shularni hisobga olib, Cho'lpon ijodini maktablarda yangicha usullarda o'tish haqida so'z tavsiyalar berishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Cho'lpon hayoti va ijodi maktabda dasturida 7-sinfda 2-soat, 9-sinfda 5-soat o'rganish rejalashtirilgan.

7-sinfda 2-soat hayoti va ijodi «Go‘zal»,»Binafsha», «Buzilgan o‘lkaga», «Ko‘ngil», «Xalq» she‘rlarini o‘rganish nazarda tutiladi.

9-sinfda 5-soat «Kecha va kunduz» romani, «Qalandar ishq», «Kishan», «Vijdon erki», «Yong‘in» she‘rlarini tahlil qilish nazarda tutiladi.

Akademik litseylarda esa 4-soat ya‘ni 2-para berilgan. «Kecha va kunduz» romani, «Men shoirmi», «Yong‘in», «Vijdon erki», «Qo‘zg‘alish», «Somon parcha», «Bahorni sog‘indim», «Kuz yomg‘iri» kabi she‘rlari tahlil qilinishi lozim.

Biz shularni hisobga olib ushbu ishimizda 7-sinflarda Cho‘lpon she‘rlarini, 9-sinfda «Kecha va kunduz» romaning o‘qitilishi yuzasidan baholi qudrat metodik tavsiyalar berishga harakat qildik.

Har bir dars o‘quvchi uchun yangi axborotdir. Ayniqsa, yangi o‘quv materiali orqali o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy ta‘lim sifatini ta‘minlovchi omildir. O‘quvchilarga yangi bilimlarni berish va olingan yangi bilimlar asosida ko‘nikmalarni shakllantirish uchun kichik guruhlarda ishlash, vizuallashtirish, mustaqil ijodiy ishlash, o‘yin mashqlari va rolli o‘yinlar kabi noan‘anaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

I BOB

7-SINFLARDA CHO‘LPON SHE‘RLARINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH

Cho‘lpon favqulodda iste’dodga ega bo‘lgan Shoir edi. Uning She‘riyati haqidagi haqiqatga, asl mohiyatiga etish shunday bir yo‘lki, unga qadam quyan kishi xamon qalin- qalin jildalar ostida umrguzorlik kelayotgan soxta tarix bilan baxsga kirishmay, undagi oyog‘i osmondan keltirilgan xaqiqatlarni tiklamay turib, maksadga erishishi gumon. Uning Shoirona kalbi olamni juda nozik xis kilar, barcha murakkabliklarga, jamiki algov-dalgovlarga, kulfatu mushkulotlarga o‘ziga xos tarzda aks sado berardi. Uning utkir nigoxi munson ruxiyatining eng olis puchmoklarigacha etib borar, teran tafakkuri esa turfa xil xodisalar katidan xaqiqat nuqtalarini kashf etardi. Cho‘lpon maxorati shunchalar yuksak ediki, u kalamning bir engil xarakati bilan so‘z lashkarini istagan izmiga sola bilardi. Cho‘lpon meros qoldirgan She‘riyat – chindan-da mo‘jiza.....

Cho‘lponning adabiy ijodi uch muhim tarmoqdan: she‘riyat, nasr va dramaturgiyadan iborat. U avvalambor shoirdir. Ammo shu bilan birga, adib uch jildligining 2-jildiga uning mashhur «Kecha va kunduz»⁴ romani bilan birgalikda turli davrlarda yozilib chop etilgan 13 hikoyasi kiritilgan. Ular orasida «Qurboni jaholat», «Kileo‘patra», «Do‘xtur Muhammadyor», «Oydin kechalarda», «Qor qo‘ynida lola» va «Novvoy qiz» singari ocherk va hikoyalari bor. Bu hikoyalarni o‘quvchilarga o‘rgatishda har xil usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktab dasturlarida Cho‘lpon hikoyalariga soat ajratilmagan shu sababdan sinfdan tashqari darslarda va mustaqil o‘qish uchun hamda adabiyot to‘garaklarida bu hikoyalarni tavsiya qilib o‘rgatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi zamonda o‘rganiladigan bilimlar miqdori shunchalik ko‘pki, o‘quvchilarni faollik ko‘rsatib mustaqil bilim olishga ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, uni erkin bayon etishga mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o‘rgatadigan o‘qitishning yangicha texnologiyalarining

⁴ Cho‘lpon. Asarlar. 3 jildlik. I-II jildlar. Toshkent, 1993.

ta'lim jarayoniga joriy etishni talab qiladi. O'quvchilarda foallashish qobiliyati oshib borayotir. Shu sababli o'quvchi obyektidan subyektga aylanib uning o'zi izlanishga mushohada yuritishga intilmoqda. O'quvchilarning bilim olishga intilishini faolashtirishning asosiy tomonlaridan biri, ularni yangi bilimlar olish ustida mustaqil ishlatishdir.

Cho'lpon XX o'zbek nasrining eng zabardast vakili bo'lishiga qaramay, uning ijodi umumta'lim maktablarida mustaqillikdan keyingina o'rganila boshlandi. Bu xol adib ijodiga alohida sinchikovlik bilan munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Agar o'qituvchilar akademik-litsey, maktablardagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajalarini to'g'ri xisobga ola bilsalar, uning asarlarini bolalar qalbiga etkaza olsalar, o'quvchilar Cho'lponing badiiy yuksak asarlarini sevib qoladilar, uning ijodiga mehr bilan yondashadigan bo'ladilar. O'qituvchi shularni ham alohida urg'u berib tushuntirishi lozim.

O'qituvchi– bu eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsda nimadir yangilik olishi va shu yangilik orqali nimadir qila olishi uning mahorati, bilimi va saviyasiga bog'liq. O'qituvchi har bir darsda dolzarb masalalarni qo'ya olishi, o'quvchilarni bahs-munozaraga chorlay bilishi, darsni oxirigacha qiziqarli tarzda olib borishi zarur. Ta'lim sifatini ta'minlovchi yana bir omil – bu faol o'quvchidir. O'quvchilarni faollashtirish uchun esa o'qituvchi darslarda faol ta'lim metodlari va elementlaridan foydalanishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

O'qituvchi 7-sinfda Cho'lpon She'rlarini o'rganishga ajratilgan soatda darsni o'quvchilarni shoirning hayot yo'li haqida darslikda qayd etilmagan ma'lumotlar bilan tanishtirsa, o'quvchilarning shoir haqidagi tasavvurlari yanada tiniqlashadi, muallif va She'rxon orasidagi masofa qisqaradi. Cho'lpon hayotining bosqichlari, uning shaxsiyati dramasi o'zi ham xuddi go'zal asarlari singari o'quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi Cho'lponning hayotiga oid dalillarni keyingi yillarda chop etilgan O.Sharafiddinovning «Cho'lponni anglash»⁵ nomli risolasi, N.Karimovning «Cho'lpon» nomli ma'rifiy romani, B.Ro'zimuhammad «Cho'lpon-tong Yulduzi

⁵ Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. Toshkent, Yozuvchi nashriyoti, 1994,

demak» singari tadqiqotlaridan olish mumkin. Masalan, Shoirning bolalik yillari haqida o'quvchilar tasavvurlarini tiniqlashtirish maqsadida quyidagi xotiralarni keltirish mumkin: «Abdulhamid olti-etti yoshidayoq savod chiqarib, sakkiz-to'qqiz yoshida andijonlik Mirkomil boyning ziqnaligini tanqid qilib, gazetaga maqola yozgan, maqola gazetada bosilgach, kimdir Mirkomilboyga maqolani Sulaymon bazzozning o'g'li Aabdulhamid yozganini aytgan ekan. Boy darg'azab bo'lib sulaymon bazzozni chaqiribdi. U yolg'iz o'g'li borligini, to'qqiz yoshda ekanini, ammo hali maktab ko'rmaganini aytibdi. Ishonmasa ertaga do'kondan qaytishda kirsam, o'g'lini ko'rsatishini aytib, boyning oldidan arang qutilib chiqibdi. Ertasi kuni Mirkomilboy mahalladan o'tayotganda boshyalang, oyoqyalang bo'lib, ko'chada varrak uchirib yurgan bolakayni ko'rib va g'azabidan tushgan ekan»

Zamona zaylini yaxshi tushungan, ilm-ma'rifatni qadrlagan bo'lg'usi shoirning otasi, anchagina taraqqiyparvar inson, madrasa ko'rgan shoirta'b savdogar Sulaymonqul Yunus o'g'li farzandining «zamona iqtizosincha» bilim olishiga ayrica e'tibor bilan qaraydi. Shuning natijasi o'laroq, yosh Abdulhamid oila muhitidayoq nafaqat Turkiston, balki Ichki Rusiya va Turkiyada chop etilgan jadid nashrlariga mushtariy bo'lish, ularni muntazam kuzatib borish imkoniga ega bo'ladi. Yosh Cho'lponning dunyoqarashi o'sha gazetalar ta'sirida, aniqrog'i, jadidchilik g'oyalari ta'sirida shakllanadi, u o'zini qurshagan ijtimoiy muhit hayotini, o'zi guvoh bo'layotgan voqea-hodisalar mohiyatini jadidchilik ruhidan kelib chiqib tushunadi va baholaydi. Shu bois ham otasidagi she'riyatga muhabbatni yuqtirgan Cho'lpon ijodining avvalidayoq o'zining ijodiy kredosini aniq belgilab olgan, butun kuch-g'ayratini «millatni uyg'otish» maqsadiga sarf etish, bu yo'lda badiiy so'zni vosita qilishga qaror bergandi.

..Tun hali qop-qora etaklarini tortib ulgurmasdan, ko'kda Tong yulduzi porlab yubordi. Ko'plar bu yulduzni Cho'lpon deb atashadi. U oltin kipriklari osha chor atrofga sehrli nurlarini sochar ekan, sekin-asta tunning muz qatlamlari erib, tong yorisha boshladi. Cho'lpon xuddi «Uyg'on, bolam» qo'shig'ini aytib, bu bepoyon olamni uyg'otayotgandek edi.

Ehtimol, Abdulhamid Sulaymon o'g'li uchun taxallus tanlanganida, ana shu subhidam manzarasi va undan olgan bir olam quvonchini «Cho'lpon» so'ziga singdirmoqchi bo'lgandir. Ehtimol, u yosh shoirning kelajakda o'z asarlari bilan mudroq xalqini Tong yulduzi singari uyg'otishi va XX asr o'zbek madaniyati osmonida Cho'lpon singari porloq yulduz bo'lib nur sochishini orzu qilgandir. Agar ana shunday pokiza orzu va niyatlar bilan Abdulhamidga «nurli» bir taxallusni hadya etgan bo'lsa, Cho'lpon butun umri mobaynida ustozning ana shu yuksak ishonchini oqlashga harakat qildi. Xususan, professor O.Sharafiddinov muallif nigohi «o'zbek xonadonining ichkarisi»ga qaratilganini ta'kidlaydiki, undagi ayollar «katta hayotdan ajralgan holda, to'rt devor ichida, faqat bir-birlarining diydorlariga termulib, bu dunyoning huzur-halovatidan, rohat-farog'atidan mahrum holda umrguzaronlik qilishga majbur. Shu bo'g'iq diqqinafas muhit ulardagi fazilatlarining ro'yobga chiqishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, ularni bir-birlarining tagiga suv quyishdan toymaydigan, bajonu dil g'iybat bilan shug'ullanadigan bachkana kimsalarga aylantiradi».⁶

Cho'lpon lirikasining asosiy mavzui mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan isyondir. Uning ishqiy she'rlarida esa soch obrazi muhim ma'no tashiydi. Oktyabr inqilobi bilan murosada bo'lgan, qatog'on qurboni Cho'lpon o'zining betakror asarlari bilan XX asr adabiyotiga ulkan hissa qo'shdi. U adabiyotni «o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi» deb atagan edi. Shoirning eng sara asarlarini o'zida jamlagan «Yana oldim sozimni»⁷ kitobi 1992 yilda nashr etildi. Shu yili yanga ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofotning dastlabki sohiblaridan biri ham Cho'lpon edi.

U «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat Cho'lpon («Tong yulduzi». Bu taxallusni unga Munavvar qori bergan) taxalluslari bilan ijod qilgan, ko'pgina asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asarlar quyidagilardir: Shekspir «Hamlet», K. Gottsi «Malikai Turondot», Moler «Xasis», Goldoni «Ikki boyga bir qarol», Shiller «Bosmachilar», Pushkin «Boris Godunov», «Dubrovskiy»,

⁶ Sharafiddinov O. Cho'lpon.- T.,1991.- B.59-60

⁷ Cho'lpon. «Yana oldim sozimni». Toshkent 1992 y.

Gogol «Tergovchi», Franko «Feruza», Gorkiy «Ona», Andreev «Osilgan yetti kishining hikoyasi», I. S. Turgenev «Cho‘ri qiz» va boshq.

Asarlari: «Uyg‘onish» (1923), «Buloqlar (1922), «Tong sirlari (1926), «Soz» (1923), «Jo‘r» (so‘nggi to‘plami, nashr etilmay qolgan) kabi she‘riy to‘ilamlari, «Qurboni jaholat», «Do‘xtur Muhammadyor», «Oydin kechalarda» (hikoya qahramonlari: Zaynab kampir, Qodirjon va boshq.), «Qor qo‘ynida lola», «Novvoy qiz», «Oq podshoning in‘omi», «Gavharoy» kabi hikoyalar, «Mushtumzo‘r», «O‘rtoq Qarshiboev», «Hujum» (V. Yan bilan hamkorlikda), «Yorqinoy» (1920 yilda yozilgan ertak-pesa, unda o‘zbek folklori (ertaklari) motivlari asosida o‘zbek xalqining erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari gavdalandirilgan. Asar qahramonlari: Po‘lat, O‘lmas botir hamda uning qizi Yorqinoy va boshq.) «Kecha va kunduz», «Xalq» (1921), «Binafsha», «Buzilgan o‘lkaga», «Ko‘ngil», «Kishan», «Go‘zal», «Sezgi», «Diyorim», «Vijdon erki», «Ko‘zg‘alish», «Xazon» (1923), «O‘zbekim», «Qalandar ishq», «Galdir», «Yo‘l esdaligi», «Sharq uchun», «Amirning o‘limi», «Erkinlik istagi», «Men shoirmi?» (1928), «Hazon», «Somon parcha», «Cho‘rining isyoni», «Cho‘lpon sevgisi», «Xalil farang», «Kuz», «Hor», «Adabiyot nadur?» (Unda Cho‘lpon «Adabiyot har bir millatshtg hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda stishgan, fayzli til birla taqdyr etula olmaydurg‘on bir guldur». ...Adabiyot yashasa millat yashar... Hozirda bizg‘a birdan lozim bo‘lgan narsa- adabiyot, adabiyot, adabiyot...» deb yezgan), «Hijrat» (sahnalashtirilmagan), «Safarnoma», «Qaytish yo‘q» (maqola) va boshq. O‘qituvchi yuqoridagi ma’lumotlarni xar-xil usullar yordamida ko‘rsatishi mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarni Shoir shaxsiyatiga doir dalillar bilan tanishtirgach, «Go‘zal» She‘rining tahliliga kirishadi. She‘r o‘qituvchi tomonidan, albatta, yod aytilishi kerak. Cho‘lpon lirikasining asl durdonalaridan birini adabiyot o‘qituvchisi yod aytmasa, o‘quvchilarda She‘riyatga mehr paydo qilish mushkul. Bu holat o‘qituvchining obro‘si, uning bilimdonligi va o‘qimishliligi haqidagi o‘quvchilar tasavvurini o‘zgartirib yuborishi ham mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni Shoir shaxsiyatiga doir shu kabi ma'lumotlar bilan tanishtirgach.»Go'zal» She'rini yoddan aytib beradi.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: «Men uni tushda ko'ramen,
Tushimda ko'ramen— shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!»
Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqg'a,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqg'a.
Ul-da aytadir: «Bir qizil yanoqg'a
Uchradim tushimda, ko'milgan oqg'a.
Oqg'a ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!
Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
YOnimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: «Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni— shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!»
Ul ketkach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda,
Ul-da uyatidan bekinib, qochib,
Aytadir: «Bir ko'rdim tushdamas, o'ngda,
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!»
Men yo'qsil ne bo'lib uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib kuyibmen.
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen.
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?

«Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!»

Ifodali o‘qishning o‘zi ta’limning bir texnologiyasi hisoblanadi. Toki, She’r o‘quvchilarning tuyg‘ulariga bevosita tegib ketadigan bo‘lsin. Toki Shoirning hissiyot olami o‘quvchilar nazarida ro‘y-rost gavdalanadigan bo‘lsin. She’r maromiga etkazib o‘qilgach, bir oz sukutdan keyin uning tahliliga kirishish lozim. Ochiq aytish kerakki, She’riyatning chinakam namunalarini tahlil qilish nihoyatda mushkul. Chunki asl lirikada odamzod oddiy til bilan ifodalay olmaydigan tuyg‘ular, ruhiy holatlar aks etadi. Bunday holatni oddiy til bilan ifodalash She’rning jozibasini yo‘qqa chiqarish bilan barobar bo‘ladi. Ayni vaqtda, agar o‘qituvchi She’rning butun jozibasini o‘quvchilar qalbiga etkaza bilgan bo‘lsa, uni tahlillashga dastlabki qadam to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘ladi.

Cho‘lpon singari Shoirlarning asarlarini tahlil etishda qissadan hissa chiqarishga oshiqmaslik kerak. Bu xildagi asarlarda o‘gitbozlik bo‘lmaydi, balki ruhiy manzara chiziladi, inson hayotining bir lahzalik to‘lg‘onishlari ko‘rsatiladi. Shu boisdan ham bu xildagi asarlarni «Shoir mana bunday demoqchi», «ana unday xulosa chiqaryapti» tarzida tahlillash uni yo‘qqa chiqarish bilan tengdir. Bu xil asarlarning jozibasi nimada ekanligini topish o‘quvchilar oldidagi asosiy vazifa bo‘lmog‘i kerak.

«Go‘zal»da Cho‘lpon tabiatning juda dilbar She’riy manzarasini yaratgan. Shoir tabiatdan nusxa ko‘chirmaydi, hech qachon o‘ziga go‘zal tuyulgan tabiiy lavhani shu holicha tasviriga inson ruhini singdiradi, lirik qahramonning hissiyoti tabiat go‘zalligiga jon bag‘ishlaydi. Uni dard bilan insoniy ishq bilan munavvar qiladi. Shoir izlayotgani go‘zalni dastlab «Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib, Eng yorug‘ Yulduzdan...» so‘raydi. O‘qituvchi tahlilning ibtidosidanoq o‘quvchilarni lirik qahramon tuyg‘ulari olaimga yaqinlashtirishga urinishi darkor. Nega lirik qahramon go‘zalni «qorong‘u kechada» izlay boshladi? Nima uchun ma’shuqasini «eng yorug‘ Yulduzdan» so‘radi? Bu Yulduz ne boisdan go‘zal ma’budani «tushda ko‘ramen» deb javob berdi? O‘quvchilar shu savollarga javob topish uchun She’r matniga tayanib bosh qotirsalar asarning

jozibasi, siri ochila boradi. Ishqqa muhtalo bo'lgan qalb egasiga uyqu harom. Hazrati Navoiy aytganlaridek, «Beishq ulusqa kom uyqu, Ishq ahligadir harom uyqu» Ya'ni qalbiga ishq oshyon qurmaganlar, haqiqatni bilishni istamaganlar uchun uyqu- maqsad. Ishqqa giriftor bo'lganlarga, haqiqatni, Haqni tanimoqchi bo'lganlarga esa uyqu harom. Shu bois «Go'zal»ning lirik qahramoni bedorlik bandasi. Bedor odam, qalbiga ishq oshyon qurgan dardmand oshiq o'ziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin bu xildagi o'ta mahram tuyg'ularni boshqa odamizod bilan o'rtoqlashib bo'lmaydi. Lirik qahramon uyqusiz tunda osmon jismlariga, eng yorug', eng yaqin Yulduzga murojat etishi, undan yorini so'rashi ishonarli holat. Har holda Cho'lponning lirik qahramoni, avvalo, Yulduzga qarata xitob etib, notabiiy yo'l tutmaydi. Endi o'quvchilar Yulduz ne uchun go'zalni o'ngidamas, tushida ko'rgani haqida o'ylab ko'rishlari kerak. O'zbek malagi G'arbning tunkezar sohib jamollaridan emaski, doim tungi mavjudotlar nazariga tushsa, ular malakning ta'rifini eshitishlari, eshitganlari asnosida tushlarida ko'rmoqlargina mumkin, xalos. Shu vajdan «eng yorug' Yulduz» malakni faqat tushida ko'rgan. O'qituvchi Yulduzning so'nggi e'tirofiga o'quvchilarning diqqatini qaratishi kerak: «Tushimda ko'ramen: shunchalar go'zal, Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal». «E'tibor qilingan bo'lsa, lirik qahramon ma'shuqasini bitta-»eng yorug' Yulduzdan» so'ragan edi. Lekin e'tirofida «Bizdan-da go'zaldir..» deya javob beradi. Nima uchun? Bitta Yulduz, u qanchalar porloq bo'lmasin, ko'kning ko'rki bo'lolmaydi. Osmon bezagi-osmon to'la Yulduzlar. Ularning go'zalligi ham g'ujligi va tartibli tartibsizligida. Shoir She'ridagi har bir mayda jilvagacha nihoyatda katta e'tibor bilan ishlangan.

Lirik qahramon Yulduzdan qoniqarli xabar eshitmagach, ko'zini «oy chiqqan yoqqa» olishga majbur. Oy: «...bir qizil yanoqqa uchradi tushimda, ko'milgan oqqa», deb javob aytaydi. O'quvchilar oyning tushidagi malak ne bois oqqa ko'milganini ancha oson izohlay olishadi: tushida bo'lsa-da, go'zalni ko'rmoq uchun nazar tashlagan oyning o'zi ham bo'y ko'rsatadi. Va undan mayin oq rang nur, sutday nimtatir yorug'lik taraladi. Taraldi-yu, malakka tushib, uni bag'riga oladi. Buning ustiga sharq ruhshunosligida oq ezgu rang. Go'zal,

garchi.Uni oy o'ngida ko'rmagan bo'lsa-da, albatta oq kiyingan bo'lishi kerak. Erdagi malakdan taralayotgan oqlik, ko'kdagi oydan tushayotgan oydin bilan qo'shilishib malakni oqqa ko'madi. Va bu juda tabiiy, lekin She'rda «qizil yonoq» degan sifatlash ham bor. Sharq odami uchun qizil yuz ham sog'lomlik, ham go'zallik timsoli. Shu bois oyning tushidagi malak qizil yonoqli. Buning ustiga malakning qizil yonog'i She'rning keyingi bandidagi kunning qizilligiga bog'lanadigan bilvosita tasviriy halqa.

Yorini so'roqlab tong ottirgan oshiq «Erta tong shamoli»dan ham yorini surishtirmay iloji yo'q. Tonggi nasim go'zal malakni tushida emas,o'ngida ko'rgan. Lekin bu baxtiyor visol unga «bir» martagina nasib etgan.Uning sarosar kezmog'i, xurliqoga telbavor oshiq bo'lmog'i uchun o'sha yo'liqish kifoya:»...bir ko'rib,yo'limdan ozib, Tog'u toshlar ichra istab yuramen». Sirli go'zalning tonggi shamolga yo'liqishini o'quvchilar oson izohlaydilar.O'zbekning dilbar qizlari saharlab turishadi. Qanchalik ehtiyot bo'lsa-da, ma'shuqa biron marta tong nasimining nigohidan qutila olmay qolishi mumkin. Nihoyat ishq o'tida yonib, kunduzgacha bedor yurgan oshiq kunga murojat etadi:

«Ul-da o'z o'tidan bekinib,qochib aytadir:

bir ko'rdim tushdamas,o'ngda.

Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,

oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal».

Astoydil izlagan doim topadi deganlariday, kun ham ul malakni bir bor ko'rishga muyassar bo'lgan. Lekin o'sha uchrashuv uning ham go'zalga oshiq bo'lishiga, o'zidan-da,oydan-da go'zal ekanligini e'tirof etishiga etarli. Mazkur banddagi «Ul-da o'z o'tidan bekinib,qochib» misrasi o'quvchilar e'tiboridan chetda qolmasligi kerak.She'riy tanadagi har qanday kichik o'zgarishlarni payqay olish,uni tushunish sari tutilgan yo'l eng samarali didaktik yo'ldir.Kunga tik qarab bo'lmasligi 7-sinf o'quvchilariga ham ma'lum. Quyoshga tik qarab uni ko'rib bo'lmaydi. Buni Shoirona nigohgina «o'z o'tidan bekinib, qochib» tarzida ko'ra olishi mumkin.Kun falakda suzib yuribdi. Tik qarashingiz bilan ko'rinmay qoladi. Chunki o'ti ko'zingizni oladi.

Yulduz,oy,shamol,kun obrazlari yordamida lirik qahramon qalbidagi ishq o'ti alangasining nechog'li balandligi,hijron azobining qanchalar og'irligi ochiladi Charx urib,unsiz faryod chekib olamdagi eng muqaddas narsasini-dardini, ishqini izlayotgan oshiqning holati o'quvchilarga shu tariqa anglashilishi lozim.

She'ning so'nggi bandi to'lig'icha lirik qahramon ruhiy holatining,uning kayfiyatining ifodasidan iborat. Hajr yo'lida o'rtanayotgan oshiq ma'shuqasidan yozg'irmaydi.Chunki u hatto vasl ta'masidan ham yiroq.U ishqning o'zidan masrur,dard chekish baxtidan mag'rur. Shu bois «boshini zo'r ishga berib» qo'yganidan pushaymon emas.

So'ngra quyidagi izohli lug'atga tayanib She'r matnidagi notanish so'zlarni alohida plakatga ishlanadi va taxtaga ilib qo'yiladi:

suymoq-sevmoq-
yo'qsil-bechora
boshini bukmoq-boshini egmoq-
ul-da- u ham
so'rmoq-so'ramoq
oqqa ko'milgan –oq libosga o'ralgan
yo'ldan ozmoq-yo'lini yo'qotmoq
men suygan suyukli-men sevgan ma'shuqa

Lug'at ustida ishlangandan so'ng ikkinchi marta ifodali o'qilgan «Go'zal» She'ri o'quvchilarning tuyg'ulariga bevosita tegib ketishi tabiiy. Agar o'qituvchi o'z mutolasi bilan She'ning jozibasini o'quvchilar qalbiga etkaza olgan bo'lsa, uni tahlil etishga dastlabki qadam to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Asar ustida ishlashga kirishishdan oldin o'qituvchi uning mazmuni bilan bog'liq quyidagi savol topshiriqlar ustida o'zi o'ylab ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1.Yulduz bilan oyning go'zalligi o'nglarida emas,tushlarida ko'rishiga sabab nima deb o'ylaysiz?

2.Shamol go'zalni qay holatda uchratganini matndan qayta o'qing.U go'zalni qaerda, qanday holatda ko'rishi mumkin deb o'ylaysiz?

3.Sizningcha, nega Yulduz bilan oy go‘zalni tushida ko‘rishgan-u,shamol o‘ngida ko‘rgan? Bunga biror asos bormi?

4.»Men suyib,men suyib kimni suyibmen?» misrasidagi takrorning ta’sir kuchi haqida o‘ylab ko‘rib fikr ayting.

5.She’rdagi go‘zal obrazini kim deb o‘ylaysiz?Odam timsolimi,ozodlik ramzimi,baxtmi,vatanmi?

Shu savol topshiriqlar asosida o‘zi asarni tahlil qilib olgan o‘qituvchi ulardan darsda o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari o‘quvchilarga «*aqliy hujum*»usulidan foydalanib,Quyidagi savolni o‘rtaga tashlashi mumkin:

Go‘zallik o‘zi nim? Cho‘lpon qanday go‘zallikni ta’riflamoqda? Keyin o‘quvchilarning fikrlarini bilib o‘z munosabatini bildirishi kerak.

«Go‘zal»da Cho‘lpon tabiatning juda dilbar She’riy manzarasini yaratgan.Shoir inson ruhiyatidagi o‘zgacha holatlarni tabiat bilan mutanosiblikda tasvirlashga harakat qilgan.Asar qahramoni oshiqning hissiyotlari tabiatga ham jon bag‘ishlaydi. Oshiq tabiatni dard bilan, insoniy ishq bilan munavvar qiladi. Oshiq o‘zi izlayotgani go‘zalni dastlab «qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,eng yorug‘ Yulduzdan...» so‘raydi.O‘qituvchi tahlilning boshidanoq o‘quvchilarni oshiq tuyg‘ulari olamiga yaqinlashtirishi darkor. Nega oshiq go‘zalni tunda izlay boshladi? Nima uchun ma’shuqasini «eng yorug‘ Yulduzdan» so‘radi? Bu Yulduz go‘zalni «tushida ko‘r» ishining boisi nima? O‘quvchilar shu savollarga javob topish uchun She’r matniga tayanib bosh qotirsalar asarning jozibasi, siri yanada chuqurroq ochila boradi. Savollarga sinfdagi o‘quvchilarning hammasi javob berishi shart emas. Javobni hammadan birday talab qilish ham metodik jihatidan uncha to‘g‘ri emas.Garchi sinfda savollarga umuman javob bo‘lmasa ham bundan fojia yasamaslik kerak.Yoki o‘quvchilarga bergan savoliga o‘qituvchining o‘zi javob berishi ham noto‘g‘ri. Agar savolga javob bo‘lmasa,uni ochiq qoldirish.bu haqda o‘ylab ko‘rishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Cho‘lpon ijodi umumta’lim maktablarining 7-sinfidan boshlab o‘rganiladi. Sinfda o‘rganish ko‘zda tutilgan She’rlar Cho‘lponning shoh asarlari sirasiga

kiradi. Bu holat o'qituvchining vazifasini bir qadar engillatgani kabi, uning zimmasiga qo'shimcha mas'uliyat ham yuklaydi. Negaki, shoh asarlarni, zamon She'riyatining asl namunalari o'rgatishning o'ziga yarasha mas'ulligi bo'lishi tabiiydir. Milsiz muhabbati va sadoqati evaziga hech narsa ta'ma qilmaydigan chin oshiq ruhiy dunyosining nurli to'lg'anishlari aks etgan «Go'zal» She'rini shu tariqa tahlil etish mumkin. O'qituvchi She'rni hikoya qilish, uni qandaydir tarzda bayon etishga urinishday nobadiiy yo'ldan hargiz bormasligi kerak. Bu narsa She'rning ilohiy qudratini yo'qqa chiqaradi. Uni oddiy hangoma darajasiga tushiradi. Birinchi soat so'ngida bolalarga uyda She'rni yodlash hamda Shoir tarjimai holiga doir dalillarni o'zlashtirib kelish topshiriladi.

Cho'lpon lirikasining eng sara namunalaridan biri «Buzilgan o'lkaga» She'ri tahlili ham o'qituvchidan atroflicha tayyorgarlikni talab qiladi. Eng avvalo o'quvchilarga: O'lka buzilganmi xalqmi degan savol bilan murojat qilishimiz kerak? Mazkur She'r Shoirning boshiga tushgan qora kunlarda unga aybnoma sifatida qo'yilgan «millatchilik» ruhidagi asardir. Bu She'rda Shoirning ota makon-Turkistonga bo'lgan cheksiz muhabbati, uni ozod ko'rish yo'lidagi engib bo'lmas istagi yaqqol ko'rinib turadi. Hajman anchagina kattaa bu asarni o'qituvchining yod olishi birmuncha qiyin. Lekin darsning qiziqarliligini ta'minlashga bel bog'lagan o'qituvchi bu shoh asarni yod olishi lozim bo'ladi. «Buzilgan o'lkaga» yod olinmagan taqdirda ham, juda ifodali qilib, Cho'lponning holatini, uning kayfiyatini aks ettirib o'qib berilsa, o'quvchilarga nihoyatda kuchli ta'sir qiladi. O'quvchilarning junbushga kelgan tuyg'ulari, befarqlik deb atalmish uyqudan qutulganligi asarni yaxshilab o'rganish sari qo'yilgan ilk ma'qul qadamdir. O'quvchining qalbiga ta'sir qilmagan badiiy asarni tahlil qilish devorga gapirish bilan barobar. O'quvchining tafakkuriga olib boradigan yo'l uning qalbi orqali o'tadi. O'quvchining qalbi zabt etilgan taqdirdagina uning tafakkuriga ilm urug'ini sochish va undan mo'l hosil kutish o'rinlidir.

Cho'lponni millatchilikda ayblagan odamlar asosiy dalil sifatida «Buzilgan o'lkaga» She'rini keltirishadi. Shoirning mazkur She'riga o'rta maktab dasturining

7- sinf II – choragida 2 soat ajratilgan. Shu vaqt mobaynida o‘quvchilarga bu She’rning yaratilish tarixi, mazmuni haqida gapirib beriladi. Bunda Zamira Eshonovaning «Yoshlik» oynomasining 1991 yil № 3 sonida bosilib chiqqan «Xaq yo‘li, albatta, bir o‘tilgusi» nomli maqolasidan foydalanilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lur edi.

Cho‘lpon dunyoqarashining, iztirobu alamlarining eng tiniq ko‘zgusi bo‘lgan bu She’rining ildizlari asrimiz boshidagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga, ayniksa, xalqimizning tarixida keskin burilish yasagan 1917 yilgi oktabr o‘zgarishiga borib taqaladi. Salkam 70 yil mobaynida bu She’r xaqida nimalar deyilmadi? Uni xatto «bosmachilar gimni» deb atashgacha borishdi. Go‘yo She’rda inqilob tufayli Buzilgan grajdanlar urushi sababli vayronaga aylangan Fargona vodiysi tasvirlanga-u, Cho‘lpon sovet voqeligini qora bo‘yoqlarda ko‘rsatgan. Ha, chindanda «Buzilgan o‘lkaga» She’rida balandparvoz oxanglar, kutarinki kayfiyatlar, xayqirish yoxud faxriyalar yo‘k. Aksincha, unda ko‘m-ko‘k o‘tloqlari bosilgan, podachilari osilgan, sharak-sharak buloqlari qaynashdan to‘xtagan, tog‘u toshlarida o‘yin, chopilgan go‘zal qizlar, yosh kelinlar goyib bo‘lgan bir o‘lkaning ayanchli, xarob ahvoli tasvirlangan.

Bu She’r o‘z She’riyatida Vatan haqida yozilgan eng go‘zal, eng qayg‘uli, eng mag‘rur va eng mardona She’rdir. Shuning uchun xar bir misrasini o‘quvchilarga taxlil kilib berilsa yaxshi buladi. Cho‘lpon 1920 yildagi bir She’rida:

Kungildagi muxabbatning uchqunin

Xayotning bir burchida berkitdim.

Ul uchkunning kuchligidan siynamda

Hech to‘zalmas, ogir yara bor etdim.

deb yozadi. Bu shubxasiz, yurt, Vatan muxabbati edi. Uni ko‘p vaqt xayolidagina ardoqlab kelgan Shoir bu botiniy erksizlikka qarshi isyon kutaradi. Va «Buzilgan o‘lkaga» She’rida ana shu ulkan muxabbat bor buy-basti bilan namoyon buladi.

Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r ulka,

Nima uchun boshingda quyuq bulut, ko‘lanka?

Ujmohlarning kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza.

Vatan xaqidagi bu kayg'uli qo'shiq eng avj pardadan boshlanadi. Shuning uchun uning ilk baytini to'g'ri tushunish- She'rdagi tubsiz xasratni, dilo'rtar suroglar javobini ilgashga zamin buladi. Ta'bir joiz bulsa, She'ning tilsimini ochgan kalit xam aynan ana shu ilk baytda pinxon. Birinchi misradagi «ko'klarga salom bergan tog'lar» o'lkaga nisbatan sifatlash b'lib qolmasdan, mustaqil obraz xamdir. Yuksak osmono'par tog'lar – o'zbek adabiyotida hamisha ulug'vorlik, mag'rurlik, mangulik timsoli bo'lib kelgan. She'rda bu obrazdan kelib chiqadigan birinchi ma'no ham shu. Xo'sh, yurt osmonini qoplagan quyuq bulut, ko'lanka nima? Aytish kerakki bu obraz 20- yillar o'zbek She'riyatida eng ko'p qo'llanilgan, xamda o'sha davr Turkiston voqeligiga eng mos tushadigan obrazdir. Tabiatda ko'kni qora bulut qoplashi undagi muvozanatning bo'zulganligi, zulmat tantanasidir. U zaminni ilohiy adolat timsoli quyosh jamolidan mahrum qiladi. Bu xodisa badiiy obrazlarga aylanar ekan, shubhasiz, shu mazmun ustiga ijtimoiy ma'no ham kash etadi. Inqilobdan keyingi Turkiston voqeligidan kelib chiqsak, bu obrazga yuklangan bosh mazmun–Turkiston turmushida adolatning qayta ko'umilgani, undagi ijtimoiy muvozanatning takror Buzilganini ifodalashdan iboratdir. Buning ustiga quyuq bulutning ko'kka, haqiqatga intilgan millat qarshisida paydo bulgan yovuz kuch deb ham talkin kilish mumkin.

Cho'lpon ko'z o'ngida haqiqat – quyuq bulutlar moxiyati – ularning o'sha eski qora bulut lochinlarining ko'lankasi, soyasi ekanligi namoyon bo'ladi. U eski bulutlar esa yurt ustiga qullik, hurlik, zulm chimmatini yopgan rus bosqinchilari ekani ayon. Shuning uchun Shoir eng muqaddas, eng tabiiy xuquqi – o'z eriga ega bo'lmoq istagi toptalgan, chiqdi deb o'ylagan quyoshi o'z qoniga b o'yalgan, qo'rng'ilik qa'riga ko'milgan o'lkaga murojaat qilar ekan, shafqatsiz haqiqatga mos keladigan ana shu obrazlarni qo'llaydi. Cho'lponning ovozida Vatanning zabonsiz xilqatlaridan tortib, zabun insonlargacha–barchaning g'amu xasrati, yig'i saslari, ularning zo'rliklardan bezgan tovushlari qo'shilib, favqulotda fojiiy bir oxang kasb etadi:

Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig‘lar kabi inglaylar?
Yov bormi? deb to‘rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o‘tini yoq o‘tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiq buloqlar
Xam qorong‘u, qurqinch tunning betida
Shifo istab kelmasin deb qo‘noqlar

- Bu nega?
- Ayt menga!

Shu tarzda She‘rga zulmu zo‘ravonliklardan ingrayotgan tabiat ovozi kirib kelarkan, Shoir uning tili bilan ilk baytdagi quyuq bulut, ko‘lanka obrazlarini yanada rivojlantirib, ularning mohiyatini oshkor qilib boradi. She‘r o‘z finaliga yaqinlashar ekan, Shoirning yurt ko‘ksidan «ag‘darilgan, yiqilgan og‘ir tojning zaxar o‘qi»ni olib tashlanishiga bo‘lgan ishonchi susaya boradi. Bu bejiz emas edi, albatta. Asta – sekin dini, millati, nomusini ximoya qilish uchun qo‘lga olgan xalq daryo bo‘lib oqqan qonlar, ta‘qibu xibslardan sarosimaga tushib, e‘tiqod – a‘molidan ortga chekinishga, t o‘pu pulemyotlar og‘zida «baxt keltirgan»larga buyin egishga boshladi.

Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlarining bosilg‘on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg‘a osilg‘on?
Ot kishnashi, qo‘y ma‘rashi o‘rniga

- Oh, yig‘i,
- Bu nega

«Buzilgan o‘lkaga» She‘ridagi juda go‘zal va kutilmagan obrazlar vositasida Shoir ruhiyatining qay tarzda aks ettirganligi o‘quvchilarga etkazilishi va chuqur ijtimoiy ma‘noga ega. She‘rning mohiyati ochilishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar e‘tibori She‘rning boshlanish qismidagi Turkistonning go‘zal tabiati tasvirining berilishiga, unda Shoir mahoratining namoyon bo‘lishiga

qaratiladi. Suv er,(Sibir)dan Afg'onistongacha, Xitoydan Kavkazgacha bo'lgan ulkan hududni egallab yotgan Turon o'lkasining «ko'klarga salom bergan»ulug'tog'lari jannat buloqlari singari pokiza suvlar oquvchi chashmalari notinch. O'lkaning boshiga «quyuq bulut ko'lanka» solgan.Jannat buloqlarida top-toza suvlar oquvchi chashmalarning jildirashlari «yig'ilar kabi ingraylar», «Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar», Lirik qahramon mazlum o'lkaning tabiatiga ham ta'sir etgan zulmi dahshatini shu tariqa juda jonli qilib tasvir etadi. Nrozilik.g'am silqib yotgan, har satridan yurak dardi sitilib oqayotgan bu She'rda ham shunday go'zal poetik kashfiyotlar qilinganki, o'qituvchi bolalarning ko'ziga o'sha durdonalarni ko'rsatmasa, asarning to'liq tahlili amalga oshmay qoladi.»tabiatning o'tini yo'q o'tida Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar», deyiladi She'rda. Jahon poeziyasida buloqning shu xildagi go'zal va aniq tasviri borligiga unchalik ishonmayman. Ammo o'zbek She'riyatida Cho'lpondan boshqa bironta Shoir buloqni shu xilda tasvirlay olishi mushkul. Darhaqiqat, buloqlar qaynaydi. Odatda, «qaynash» jarayoni o'tindan yondirilgan o'tning natidjasi sifatida tushuniladi. Lekin buloqlar o'tinsiz qaynagan suvlardir.Sakkiztagina so'z orqali shu qadar chuqur ma'nolarni bera bilish uchun daho san'atkor bo'lish talab etiladi. O'lka tabiatining har bir go'zal unsiri «qo'noqlar» ning kelib qolishidan qo'rqadi. «Qo'noqlar» yurtimizni bosib olib, yurt egalariga madaniyat tarqatish da'vosini qiluvchi kelgindi bosqinchilar.

Shoir vujudini beadam anduh egallagan. Negaki, o'lka bulut ko'lankasidazulm ostida.O'lkaning suvlari jildirab oqmaydi, balki bosqinchidan qo'rqib ingraydi, «Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglay»di, musaffo buloqlar qo'noqlarning kelib qolishidan cho'chiydilar, o'tloqlar toptalgan, ularda yoyilib yuradigan poda-yu yilqilartarqalgan, podachilar dorga osilgan.»Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga-Oh, yig'i» larni quchg'uvchi, Ot chopganda uchar qushni tutg'uvchi, Uchar qushday yosh yigitlar...», «tog' egasi-sor,bulutlar..» yo'q. Mana shu ezg'in holat She'ring lirik qahramonini qiynoqqa soladi.uning iztiroblari, qalb tug'yonlari o'quvchilarga o'tadi. Ularda o'z o'lkalari vatanlari taqdiriga taqirdoshlik tuyg'usi etiladi. O'lka manzarasining Shoirona tasviri, munis

turkistonliklarning mayin va beozor turmush tarzi, hamisha ozodlikka tashna bo'lgan yurtdoshlarimizning shonli o'tmishi yorqin namoyon bo'ladi.

She'ning ikkinchi qismida mayin tabiatli Turkistonning mayin nigohi, shirin tilli Shoiri tuyg'ularining taranglashgani seziladi. Uning ko'zidagi nafrat olovi, tilidagi zahar, kinoya.yurtdoshlarini faoliyatga undovchi chaqiriq tobora kuchayib borayotgani o'quvchilarga ham etib borishi kerak. O'qituvchi She'rni o'qiyotgan vaqtidayoq ikkinchi qismni boshqacha ohang bilan, Shoirning o'lkaga qo'yayotgan adoqsiz savollariga alohida urg'u berib o'qish kerak bo'ladi. Agar asarning birinchi qismida ohista lirik tasvir etakchilik qilgan bo'lsa, ikkinchi qismida lirik mayinlik ehtiros bilan, norozilikni ifodalovchi, kurashga undovchi murosasiz ohang bilan almashinadi. She'ning har bir misrasi, Shoir tamonidan o'lkaga berilayotgan har bir savol go'zal badiiy kashfiyotligidan tashqari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tafsir etilishi lozim bo'lgan Haqiqat ilmi hamdir. Agar o'qituvchi o'quvchilarida ana shu savollarga javob talab qilish hissini uyg'ota olsa, mashg'ulotning oldiga qo'ygan maqsadiga erisha biladi.

Shoir o'lkaga, yurtdoshlariga ma'lum darajada shavqatsiz.chunki shunday «zo'r o'lka»ning, shuncha xalqning xor-zorlikka ko'nikib,kelgindi bosqinchilar zulmi ostida yashashga odatlangani .bosqinchilarga qalin tovush-la ket» demagani, «tanlarida qamchilarning kulishi»,turmushida «umidlarning o'lishi»,»«yolg'iz qon»ulushi,»turishining umidsiz» ekanligi Shoirning noroziligiga sabab bo'ladi. Cho'lpon «Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q»-deya savol qo'yar ekan, yurtdoshlaridan faqat zorlanishni emas, kurashni talab qiladi. Zotan,ozodlik berilmaydi,olinadi.

Shoir, baribir,o'z xalqining farzandi. Xalq qanchalik faoliyatsiz va mazlum bo'lmasin, Cho'lpon undan tonib ketmoqchi emas.Uni sevish baxtli qilish uchun kurashish zarur. Shu bois She'r intihosiga yaqin Shoir o'lkaga murojat qiladi:

Kel, men senga qisqagina doston o'qiy,
Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.
Kel, ko'zingning yoshlarini so'rib olay,
Kel,yarali tanlaringni ko'rib olay.to'yib olay...

Shoir o'qimoqchi bo'lgan «qisqagina», «o'tganlardan» aytiladigan ertak nima haqida bo'lishi mumkin? O'lka xalqlarining shonli tarixi to'g'risida, bu xalq insoniyatga bergan ulkan daholar haqida, yurtning ozod bo'lishiga ishonch haqida emasmikan? O'qituvchi o'quvchilarni shular xususida o'ylashga undasin.

She'rda «nega», «nima uchun» so'roqni ifodalovchi so'zlar juda ko'p ishlatilgan. O'quvchilar buning sababini topishga urinishlari kerak. Shoirning bezovta ruhi javob istaydi. Savollarga berilajak javob faoliyatga da'vat belgisi bo'lishi ham mumkin. Shu bois tinimsiz savollar beriladi. O'lkani g'aflat uyqusidan, loqaydlik holatidan chiqarish kerak. Buning uchun o'lka ahli o'ylanishi lozim. O'ylanish uchun har kim o'z oldiga savol qo'yishi darkor. Shoir xalq nomidan shu xalqning oldiga savol qo'ymoqda. Zora javob topishga urinish boshlansa degan umid bilan.

«Buzilgan o'lkaga» She'ri biroz umidbaxday tuyg'ulgan satrlar bilan nihoyalanadi: «Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka, nega sening bo'g'izingni bo'g'ib turar ko'lanka?» Garchi She'r yurtimizga nisbatan «hur o'lka» xitobi-la tugasa-da, so'nggi tinish belgisi savol alomati ekanligini unutmaslik kerak. Savol qo'yilmoqda. Demak, hali javob yo'q. Shu haqda bugungi o'quvchi ham o'ylashi darkor. O'quvchilarning e'tibori She'rdagi ohang turfaligiga ham qaratilishi zarur. Shoir tuyg'ularining sifatiga, tovlanishiga qarab She'rning ritmikasi ham o'zgarib borganki, chinakam yaxlit She'riy ohang vujudga kelgan. O'quvchilar ana shu o'zgarish ro'y bergan o'rinlarni topishi muhim. O'qituvchi dars so'ngida She'rning birinchi qismini, ya'ni boshidan to «Tog' egasi-sor, burgutlar qaerda» misralarigacha yodlashga berish kerak.

Cho'lponning She'riy merosida tabiat mavzusih ham katta o'rin tutadi va alohida tadqiqotlarga arziydi. Gap Cho'lponning tabiatga juda ko'p She'r bag'ishlaganida emas, balki Shoirning tabiatga munosabatida. U bahor va yoz xaqida, kuz va qish xaqida, Yulduzlar, tog'lar, maysazorlar, chashmalar xaqida, tun va kunduz to'g'risida, qor va yomg'ir, shabada va sukunat xaqida, ariq suvlarining shildirashi to'g'risida yozadi. Uning keng bagri tabiatning hamma xodisalarini sig'diradi, uning Shoirona nigoxi yurtimiz tabiatining hamma

ranglarini aniq ko'rsatadi. Ammo u bularning barini shunchaki bir Shoirona manzara yaratish uchun ko'rmaydi. Tabiat Shoir uchun eng yaqin do'st, tirik mavjudot, u xis qiladi, o'ylanadi, shodlanadi, iztirob chekadi. Shoir tabiat bilan insonni o'zaro raqobat olib boradigan kuchlar sifatida ko'rsatmaydi, aksincha, tabiat va inson mukammal yaxlitlikni vujudga keltirishadi, ular orasida etuk bir uyg'unlik bor.

Cho'lpon She'rlarida tabiat xam xalq xayoti xaqidagi haqiqatni aytish vositasidir. Masalan, «Binafsha» - ana shunday She'rlardan biri. «Binafsha» - ramziy lirikaning nodir namunasi. Binafsha– gul. Biroq bu gul – «Erkin kulmasdan o'zilgan, xidlari sochilmay erlarga egilgan, cho'zilgan» gul. Uni xoxlasalar o'zarlar, xidlaylar, yancharlar, Nega? U xam tabiatning erka farzandi sifatida yal-yal yonib ochilishi, «Erkin kulishi, xidlarini sochishi» mumkin edi-ku? Shoir xayolan binafsha bilan so'zlashadi:

Binafsha senmisan, binafsha senmi –
Ko'chada aqchaga sotilgan?
Binafsha menmanmi, binafsha menmi –
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan o'zilding?
Binafsha, nimaga xidlaring sochilmay
erlarga egilding, cho'zilding?
Binafsha,
Ayt menga
Kimlardir ularkim,
Ignani bagringga sancharlar
Binafsha,
Bir suyla,
U qanday qullarkim,
O'zarlar, xidlaylar, yancharlar?

Iztirobdan ko'ngli xasratga to'lgan binafsha Shoirning xadsiz savollari

qarshisida ko‘z yoshlar to‘kadi. Chunki bu muxitda Shoir uchun binafshadan, binafsha uchun Shoirdan yaqin kishi yo‘q. Moxiyatan esa Shoir va binafsha – bir jism – lirik kahramon. Shu boisdan binafsha Shoirning yuragida –da yashaydi :

Binafsha, yig‘lama, binafsha, kel beri,
Kaygungni kaygunga kushgil,
Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk eri
Bu erdan ko‘klarga uchgil,
Binafsha, go‘zalim, qayg‘ulim, kelmaysan.
Qayg‘ung zo‘r, kayg‘umni bilmaysan
Menga bir kulmaysan!

«Binafsha» - nafaqat «yovlarning zaxarli o‘qi kuksida qolgan», «xaqoratdan og‘rigan dil» izxori. Balki ona Tabiatning bir bo‘lagi, tiriklik belgisi, hamisha ezgulikka chorlovchi poetik timsoldir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘pincha poetik asarlarda inson kechinmalari tabiatga ko‘chiriladi, Shoir tabiatdan obrazlar emas, hamma uchun umumiy obyektiv qonuniyatlar izlaydi. Cho‘lpon poeziyasida tabiat ko‘p ma’noli ramzlarning tez sur‘atda paydo bo‘lish xuquqini ta‘minlaydi. Cho‘lponning o‘rta maktab dasturiga kiritilgan yuqoridagi She‘rlarini o‘tish davomida shu She‘rlarning tili haqida, Shoirning badiiy til vositalaridan foydalanganligi xaqida gapirib beriladi va o‘quvchilarga tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohlab o‘rgatila boradi.

«Binafsha»ning o‘ziga xosligi shundaki, bir qarashda, ijtimoiy ma‘no bo‘rtib turmaganday tuyulgan bu She‘rda gap nima haqda ekanligini birdaniga bilib olish qiyin bo‘ladi. O‘quvchi She‘rda ko‘klam payti keng o‘tloqlarda, dashtu biyobonlarda potrab gullab yotadigan ko‘kat haqida gap borayotir desa va bunda birinchi, ikkinchi misralariga tayansa shu bandning uchinchi va to‘rtinchi misralarida «Binafsha menmanmi, binafsha menmi, Sevgingga, qayg‘ungga tutilgan?» satirlariga duch kelib, binafsha majoziy obraz emasmikan degan shubhaga boradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni She‘rdagi obrazni to‘ri aniqlashga yo‘naltira bilsa.uni tushunish ham, tahlillash ham osonlashadi.

Adabiyot o'qituvchisi bu She'rni ham yoddan aytib berishi joiz. Chunki bu dilbar asar bir necha qayta o'qilishi bilanoq kishiga yod bo'lib qolishi tayin. Shoirning tuyg'ulari tabiiy bo'lganligi, soxtalik yo'qligi tufayli ham «Binafsha» Cho'lponning boshqa She'rlari singari She'rxon sezimlariga kuchli ta'sir qiladi va tezlik bilan uning ko'nglini rom etadi. Xullas, She'r o'qituvchi tamonidan yod aytilgach, o'qituvchining o'zi uning tahliliga kirishishi lozim. Cho'lponning avvalgi ikki She'rini o'quvchilar kuchi bilan tahlillash mumkin edi.. «Binafsha» juda latif ishoralarga boy She'r, o'quvchilar sof lirik asarlarni tushunishga, ayniqsa, tahlil qilishga birmuncha qiynaladilar. Shuni hisobga olib, adabiyot o'qituvchisi tahlilning dastlabki bosqichida tashabbusni o'z qo'lga olgani va asta-sekinlik bilan o'quvchilarni tahlilning old tamoniga o'tkazgani ma'qul. She'rda ko'klamning ardoqli o'simligi–binafsha bilan lirik qahramon taqdiri paralel ko'rsatiladi. Binafsha fojiasiga munosabat bahonasida lirik qahramon qalbida ro'y berayotgan ruhiy jarayonlar aks ettirilgan Binafsha-go'zallik timsoli. Ayni vaqtda uni ezgulik, adolat, istiqbol ramzi deyish ham mumkin. Toptalgan go'zallikni ko'rish tufayli paydo bo'lgan kayfiyat va mahzun tuyg'ular lirik qahramonni to'liq qamrab olgan. Shuning uchun ham ko'kat bilan o'zining qismatini unchalik ham farqli ko'rmaydi. «Ko'chada aqchaga sotilgan» go'zallik,..» hidlari sochilgan, erlarga egilgan, cho'zilgan» istiqbol lirik qahramonda qanday kayfiyat uyg'otish mumkin. O'quvchi ana shu dilgirlikni sezishi kerak. O'qituvchi She'r matni bilan o'quvchilarni tanishtirayotganidayoq shu holatni hisobga olishi darkor. «Binafsha»ni «Buzilgan o'lkaga» She'ri singari shiddat va besabrlik bilan o'qib bo'lmaydi O'quvchilarning e'tibori She'rning tarkibiy tuzilishiga ham qaratilishi darkor.

«Binafsha» uch banddan iborat. Birinchi va ikkinchi bandlar to'rt misradan tashkil topgan bo'lsa, uchinchi bandda o'n to'qqiz satr bor. O'quvchilar shu xususda ham o'ylab ko'rishlari kerak. Shoir buni atay shunday qilganmi? Yoki keyincha bandlarga bo'lish esidan chiqib ketganmi? She'rdagi har bir band mustaqil mantiqiy mazmuniy nafas. Shoir bir nafas bilan aytish mumkin bo'lgan tuyg'ularni, odatda, bir bandga jamlaydi. Agar yaxlit jarayon ko'rninishidagi holat

tasvirlangan bo'lsa, She'r bandlarga ajratilmaydi. SHu jihatga e'tibor qilinadigan bo'lsa,»Binafsha»ning uchinchi bandi bejiz cho'zilmaganligini o'quvchilar ham tushunadilar.Shu She'rda ham lirik qahramon ketma-ket savollar qo'yadi. Qo'yilayotgan savollar faqat binafshagagina qaratilmay, She'rxonlarni ham o'ylashga undaydi.

She'rdagi mazmunga urg'u berish maqsadida «binafsha» so'zi bir necha marta bir misra tarzida yozilgan.Bu hol binafsha obrazi fojiasi tufayli lirik qahramon chekayotgan iztirobning ko'lamiga ham ishoradir.Uchinchi bandning birinchi misrasi bir, ikkinchi misrasi ikki, uchinchi misrasi uch so'zdan iborat.Bu erda so'zning sehrini, tovushlar tovshanishini, hatto She'riy zarbning maromini ham bexato hisobga ola biladigan Cho'lponning mahorati yaqqol ko'rinib turibdiki, bundan o'quvchilarni ham bebahra qoldirmaslik lozim bo'ladi. Shuningdek, She'rda tushuntirish g'oyat mushkul, sinchiklab qaraganda tinglagandagina anglash mumkin bo'lgan xazin ohang ustivorlik qiladi. O'quvchilar ana shu ohangning manbai qaerda ekanligini topishga urinib ko'rishlari zarur. Uzilgan, ezilgan va toptalgan binafsha Shoirga o'z qayg'usini eslatib yuboradi. Chunki dardmand qalb ezgu tuyg'ularning toptalganiga ko'p bor guvoh bo'lgan hamda ta'sirchanligi uchun ham hech qachon bu holatlarga loqayd qola olmagan.Lirik qahramon toptalgan ma'sumlik va go'zallik-binafshaning qayg'usini ham o'z qayg'ulariga qo'shib olishga shay. U go'zallikni eng ozod, eng erkin maskan ko'ksiga joylashga hozir:

Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri,
Qaygungni qaygunga qo'shgil,
Binafsha, sen uchun ko'kragim erk eri
Bu erdan ko'klarga uchgil,
Binafsha, go'zalim, qayg'ulim, kelmaysan.
Qayg'ung zo'r, qayg'umni bilmaysan
Menga bir kulmaysan!

Cho'lponda She'r san'ati shu qadar yuksakki, unda tovushlarning o'rinlashuvi ham puxta o'ylanadi. Yuqoridagi misolning ikkinchi satridagi «q» tovushi bilan

boshlanadigan uchta soʻzning bir misra tarkibida ketma-ket kelishi tasodifiy emas. Shu tariqa muayan ritm hosil qilinmoqda. Koʻksini goʻzallik vatan qilib berishga, istiqbolni shu vatandan koʻklarga parvoz ettirishga shay boʻlgan lirik qahramon ruhiyatining Sheʼrdagi ifodasiga oʻquvchilarni diqqatini tortish kerak boʻladi. Chunki har qanday chinakam Sheʼr ruhiy manzarani aks ettirgani uchun, insoniy sezimlarni koʻrsata bilganligi sababli badiiy ahamiyatga molikdir. Shoirning sababi nomaʼlumday tuyulgan, aslida boisi, aniqdan-aniiq anduhi aks ettirilgan Sheʼrning oʻquvchilar tamonidan yuzaki oʻqib ketilishiga biror oʻrining ilgʻanmay qolishiga yoʻl qoʻymaslik kerak, Dunyo juda nomukammal, adolat har qadamda toptalmoqda, inson erki qafasda, Shoirning eng bebaho boyligi – vatani Turkiston musamlaka iskanjasida, bu holat Shoirda adoqsiz gʻam uygʻotadi. Lekin Shoir oʻz gʻami bilan oʻralashib, oʻzga tashvishlarni payqamaydigan kimsa emas. Uning keng olamga ochiq qalbi binafshaning fojiasiga ham dardmandlik qilishga tayyor. Shu holat Sheʼrda bunday aks ettirilgan:

Binafsha, goʻzalim, qaygʻulim, kelmaysan.

Qaygʻung zoʻr, kaygʻumni bilmaysan

Menga bir kulmaysan!

Sheʼrning atroflicha tahlili oʻzgalar tashvishiga sherik boʻlishning uddasidan chiqadigan shaxslarning shakllanishiga sezilarli hissa qoʻshadi. Oʻqituvchi «Binafsha» Sheʼrining tarkibiga, umuman, Choʻlpon Sheʼrlarinig qurilishiga oʻquvchilar eʼtiborini tortishi kerak boʻladi. «Goʻzal» Sheʼri bir xildagi oltiliklardan iborat bandlardan tashkil topgan ediva uning vazniy ohangi boshdan oxir bir xilda edi. «Buzilgan oʻlkaga»da bandlar umuman yoʻq. Buning oʻrniga Sheʼr ikkita katta qismga boʻlingan. «Binafsha» avval aytilganidek, miqdoriy jihatdan keskin farq qiluvchi uch bandga ajratilgan. «Binafsha» Sheʼrining tahlili tugagach, bu asar ham oʻquvchilarga oʻd olish uchun beriladi. Baʼzi oʻqituvchilar nazarida yoʻd olinishi zarur boʻlgan juda koʻpayib ketganday tuyulsada, Choʻlpon Sheʼrlarining ayricha joziba kuchi hisobga olinadigan boʻlsa, yodlanadigan Sheʼrlar oʻquvchilarda malollik uygʻotmaydi.

Choʻlpon ijodini oʻrganishga ajratilgan keyingi soatda Sheʼriy koʻchim haqida

qisqacha nazariy ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Cho'lpon She'riyati ko'chimlarga boy bo'lganligi uchun ham bu mavzuda bahs yuritishga istagancha namunalar beradi. O'quvchilar ko'chimning tabiatiga tushunmas ekanlar. She'riyatning tabiatiga ham tushunmay yuraverishlari tayin. SHuning uchun ham ham o'qituvchi juda engil shaklda ko'chimning o'xshatishdan farqli jihatlari yuzasidan o'quvchilarga bilim berishi kerak bo'ladi. garchi darslik-majmuada ko'chim haqida ayrim ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, o'quvchilarning o'zi bu nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishlari qiyin bo'ladi. SHuning uchun ham adabiyot o'qituvchisi, juda bo'lmasa, darslik-majmuadagi ma'lumotlar hajmida o'quvchilarga nazariy tushuncha berishi shart.

Cho'lpon ijodini o'rganishga bag'ishlangan darslar samaraliroq bo'lishi uchun o'qituvchilar tarqatma materiallar tayyorlashlari va ularda o'rganilgan asarlarni tahlil etish bo'yicha tadbirlar aks etgan bo'lishi mumkin. SHuningdek, Shoirning A.Mamatova tamonidan ishlangan badiiy portreti ham darsning birmuncha jonlanishiga sabab bo'ladi.

Xullas, agar o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rsa va o'z ishining jonkuyari bo'lsa, ikki soat mobaynida o'quvchilarni Cho'lpon ijodining bir umrlik muxlislariga aylantirib qo'yishi mumkin.

II-BOB

9-SINFLARDA CHO‘LPONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya tizimi o‘rgatish usullarining boy tajribasiga ega. Ta’limda usullar to‘g‘ri tanlanar ekan, ko‘zlangan natijaga qisqa yo‘l bilan erishish mumkin. Ta’lim-tarbiya sohasining to‘xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘rgatish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.

O‘rgatish usullari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining xarakterini, o‘qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, o‘rgatish usullari har ikkala faoliyatni, ya’ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishni hamda o‘quvchilar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llanadigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi. Demak, o‘rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro birgalikdagi faoliyatini ko‘zda tutadi. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining turi, usuli o‘rgatiladigan ma’lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

O‘qitishning zamonaviy usullari hozirgi kunda pedagogika fani va amaliyotida alohida dolzarblik kasb etib bormoqda. Ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalarning kirib kelishi pedagogik innovatsiyani anglatadi. Demak, pedagogik innovatsiyalashuv ta’lim jarayonining yangi metodik bilimlar bilan to‘xtovsiz boyitilishini, ta’limga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darajasida bajarilishini taqozo etadi.

O‘qituvchi 9-sinfda Cho‘lpon asarlarini o‘rganishga ajratilgan vaqtning birinchi soatida darsni o‘quvchilarni shoirning hayot yo‘li haqida 7-sinfda aytilganlar qayta eslariga solinib, kengroq tarzda aytiladi..

Cho‘lpon hayoti va ijodini o‘rganishda interaktiv metodlarning o‘rni
Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarning buyuk Cho'lpon ijodi va hayoti haqidagi bilim, malakalarini yanada kengaytirish, ularni mustaqil fikriashga, o'z fikrini dalillar bo'yicha asoslashga o'rgatish.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatini shakllantirish, bir-biriga o'zaro hurmatini oshirish.

Dars uslubi: interfaol usullardan foydalangan holda musobaqa darsi.

Dars jihozi: texnik vositalar, magnitafon, adabiyot darsligi, ko'rgazmalar va savol varaqasi.

Darsning borishi:

Dars yosh xonanda Otabek Mutalxojoyevning «Go'zal» qo'shig'i bilan boshlanadi.

Guruh talabalari guruhlariga bo'linadi, har bir guruhga nomi beriladi.

- «Navoiy» guruhi
- «Bobur» guruhi
- «Mashrab» guruhi

O'qituvchi: Qani o'quvchilar fikrimizni jamlash, tilimizni charxlash uchun «aqliy hujum» musobaqasini boshlaymiz.

1. Qaysi ijodkor turkiy til bilan Xitoydan Xurosongacha o'lkalarni jangu-jadalsiz zabt etganligini ta'riflaydi? Javob: Alisher Navoiy.

2. Turkiy «Xamsa» qachon va kim tomonidan yaratilgan? Javob: 15-asrning 2-yarmida A. Navoiy tomonidan yaratilgan.

3. Laff va nashr nima? Javob: Yig'ish va yoyish

4. Mashrab so'zining ma'nosi nima? Javob: - Ilohiy sharobga erishmoq.

5. «Kishan», «Qalandar ishq» g'azallari qanday vaznda yozilgan? Javob: - Aruz vaznida

(3 ta guruhga 15ta savol beriladi va guruh g'oliblari aniqlanadi).

Dars davomida eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi.

Yangi mavzuning bayonu:

Yangi mavzu bo'yicha kirish suhbat o'tkaziladi 3-guruhga 3 tadan savol beriladi.

Birinchi: «Alisher Navoiy» guruhi a'zolari sevimli adibimiz haqida to'plagan ma'lumotlarini bayon etadilar.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1898-yil Andijon shahrining Qatortarak mahallasida tug'ilgan. Uning otasi Sulaymon aka dehqonchilik, hunarmandchilik, bazzozlik bilan shug'ullanib, «Rasvo» taxallusi bilan hajviy she'rlar yozgan, o'g'lining mudarris bo'lishini xohlagan. Onasi Oysha aya esa o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Abdulhamid dastlab eski maktabda, keyin Andijon va Toshkent madrasalarida, rus-tuzem maktabida o'qidi. U o'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini yaxshi biladigan, Sharq va Ovro'po madaniyatini chuqur o'zlashtirgan ziyoli bo'lib yetishdi, Turkistonda chiqadigan gazetalardan jadidchilik g'oyalari bilan yaqindan tanishdi va shu g'oyalarga xizmat qiluvchi asarlar yoza boshladi.

Cho'lpon 16 yoshidan boshlab ijod qila boshladi, ilk asari «Qurboni jaholat» 1914 yilda yozilgan. Uning ilk she'ri «Turkistonlik qardoshlarimg'a» (1914) dir. Dastlabki asarlari «Sadoi Farg'ona», «Sadoi Turkiston» gazetalarida e'lon qilindi. U 1918 yilda Orenburgga bordi va Boshqirdiston huqumatining raisiga kotib bo'ldi, 1919 yil «Yangi Sharq» gazetasida, 1923 yil Andijondagi «Darxon» gazetasida ishladi.

1921-22 yillarda shoir Fitratning taklifi bilan «Axbori Buxoro» gazetasida muharrirlik qiladi, asarlari bilan «Inqilob», «Haqiqat» jurnallarida ham qatnashib turadi. 30-yillarda matbuotda Cho'lponga qarshi maqolalar tinimsiz chiqqan boshlagach, 1932 yilda Moskvaga ko'chib ketib, jon saqlaydi. Hatto Cho'lponning qand kasaliga muhtalo bo'lgani sababli shotut yeb yurishi ham uning eskilikka mukkasidan berilganini isbotlovchi dalil sifatida unga qarshi kurashda muxoliflarga dastak bo'lgan. Bu haqda Cho'lponning o'zi: «Qand kasalimga hech qayda yaxshi davo topa olmagandan keyin Sharq tabobatiga ishonib ketib, shotut yeyishim yana bir xatoim edi», - deb yozgan.

Ikkinchi «Zahriddin Bobur» guruhi a'zolari davom ettiradilar.

Cho'lpon 1924-1926 yillarda Moskvada tashkil etilgan o'zbek dramastudiyasida tarjimon, adabiy emakdosh va dramaturg sifatida faoliyat

ko'rsatadi, 1935 yilning boshlarida esa Toshkentga qaytib, Hamza nomli teatrda (shu teatrning tashkilotchilaridan biri Cho'lpon edi) adabiy emaqdosh bo'lib xizmat qiladi. 1937-yilda Cho'lpon qamoqqa olinadi, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otib tashlanadi. Dahshatlisi shundaki, Cho'lponni o'limga hukm qilingan sud qarori 1938 yilning 5 oktyabrida chiqarilgan edi.

Cho'lpon lirikasining asosiy mavzui mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan isyondir. Uning ishqiy she'rlarida esa soch obrazi muhim ma'no tashiydi. Oktyabr inqilobi bilan murosada bo'lgan, qatog'on qurboni Cho'lpon o'zining betakror asarlari bilan XX asr adabiyotiga ulkan hissa qo'shdi. U adabiyotni «o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi» deb atagan edi. Shoirning eng sara asarlarini o'zida jamlagan «Yana oldim sozimni» kitobi 1991 yilda nashr etildi. Shu yili yangi ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofotning dastlabki sohiblaridan biri ham Cho'lpon edi.

U «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat Cho'lpon («Tong yulduzi»). Bu taxallusni unga Munavvar qori bergan) taxalluslari bilan ijod qilgan, ko'pgina asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asarlar quyidagilardir: Shekspir «Hamlet», K. Gottsi «Malikai Turondot», Moler «Xasis», Goldoni «Ikki boyga bir qarol», Shiller «Bosmachilar», Pushkin «Boris Godunov», «Dubrovskiy», Gogol «Tergovchi», Franko «Feruza», Gorkiy «Ona», Andreev «Osilgan yetti kishining hikoyasi», I. S. Turgenev «Cho'ri qiz» va boshq.

Uchinchi «Mashrab» guruhi a'zolari yangi mavzuni davom ettirib to'ldiradilar.

Cho'lponning «Kecha va kunduz» asarigaa «O'tkan kunlar asari darajasida» deb baho berilgan. U o'zbek adabiyotidagi ilk roman - dilogiya bo'lib, ikki kitobdan iborat. Birinchi qismi «Kecha» 1933-34 yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935 yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936 yilda to'liq holda nashr etilgan. Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho'lpon romaniga «Hamal keldi - amal keldi» maqolini epigraf qilib olgan.

Romanning «Bugun» deb atalgan ikkinchi qismining taqdiri to'g'risida ma'lumot yo'q. Holbuki «Kecha» da tasvirlangan voqealarning mantiqiga ko'ra romanning «Kunduz» qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qrim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi. Birinchi kitobdagi tasvir etilgan voqea birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekiston viloyatlarining birida bo'lib o'tadi. Asardagi asosiy g'oya mavjud tuzumni tag - tomiri bilan o'zgartirishdir.

Asar qahramonlari: Zebi (15 yoshida beva qoladi, erining qotili sifatida tuxmatga qolib 7 yilga Sibirga surgun qilinadi), Qurvonbibi (ahvoli o'zgargan obraz, Zebining onasi), Razzoq So'fi (kulishi kasal odamning kulishiday og'ir, ziqna odam, Zebining otasi, ishlamay tishlovchi, ta'magirlik va tekinxo'rlik orqasida kun ko'ruvchi inson. U boshliq uy - qizi va xotini uchun zindon, uning o'zi esa shu zindonning ko'zi ko'r, qulog'i kar qorovuli), Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, «ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi». Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf'a yo'rgaklagan kampir hazilkashligi va sho'xligi bilan xotin-xalaj o'rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo'rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so'zlar bilan erkalatganmish:

- Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz?

- Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangiz-chi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Se-vining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..⁸

O'shanda kulmagan Razzoq so'fi undan keyin ham kulmay o'tdi. Kulish bilan yig'lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so'fining kulishlarini kulish, deb bo'lmaydi. (kulishi kasal odamning kulishiday og'ir, ziqna odam, Zebining otasi, ishlamay tishlovchi, ta'magirlik va tekinxo'rlik orqasida kun

⁸ Cho'lpon «Asarlar» 3 jildlik. I-II jildlar. Toshkent.1993 y.

ko'ruvchi inson. U boshliq uy - qizi va xotini uchun zindon, uning o'zi esa shu zindonning ko'zi ko'r, qulog'i kar qorovuli),

Miryoqub (dunyoqarashi o'zgargan obraz, shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadi, ezgulik bilan tubanlik o'rtasida harakat qiladi. Noyib to'ra uni amerikalik tadbirkorlarga qxshatadi), Sharafiddin Xo'jaev (jadid), Akbarali mingboshi (odam shaklidagi it), Noyib to'ra, Zunnun (Akbarali mingboshi o'rniga osongina o'tirgan), Hokim to'ra, Poshshoxon (uning hiylasidan Akbarali mingboshi o'ladi, bir kishining o'limiga, bir kishining surguniga bevosita hamda bir oilaning barbod bo'lishiga bivosita aybdor bo'ladi), Mariya Ostrova (Miryoqub «bazzoz do'konidan o'ziga toza ko'ylaklik tanlaganday» tanlab olgan obraz), Sultonxon («Siz qancha sevinasangiz, men sizdan ortiqroq sevinaman! Siz - quruq vahimani quchoqlab sevinasiz, men - tirik va joni bor odamni quchoqlab yayrayman. Kim axmoq?!» degan), Saltanat, O'lmasjon (aravakash), Xadichaxon, Eshon, Obrezqora («shaharda bo'lsin, uezdda bo'lsin, uni tanimagan odam yo'q, o'zi yerlilardan... Obrezqora - yerli xalqlardan chiqqan «advokat»« deb ta'riflangan). Bu asardagi Sultonposhsha, Akbarali, Eshon, Noib to'ra kabilar tubanlik va razillik, fahsh va adolatsizlik olamining vakillaridir. Asarda «Mastning ko'ziga mushuk- fil, fil-mushuk bo'lib ko'rinadi. Mastlikda xotin tanlab bo'ladimi? Kampirni pari qiz qilib ko'rsatadigan tilsimli oyna - ichkilikdan boshqa narsa emas!» deya ichkilik illati ham qoralangan.

Uchchla guruh ham to'g'ri ma'lumotlar to'plab, tushunarli va aniq fikr orqali yozuvchining hayoti va ijodi haqida to'liq ma'lumot berganligi uchun taqdirlanadi.

Endi guruhlarga navbatdagi topshiriq beriladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilarning adib hayoti, ijodi haqidagi bilimlari sinovdan o'tkaziladi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida «interfaol» usullardan biri «KLAUSTER»dan foydalanamiz.


Uchala guruh ham toza qog'oz olib istagan xilda «klaster» chizmasini chizadilar.

O'qitish andozasining 1-bosqichini boshlaymiz. «Klaster» o'quvchining mavzu haqida erkin, ochq tarzda fikr yuritishga yordam beradi.

«Klaster» fikrlashning to‘g‘ri chiziqli bo‘lmagan shaklidir.

«Klaster» bo‘lish juda oson va tez eslab qolinadi.

Ta‘lim-passiv emas, balki faol faoliyatdir. Bu bosqichda o‘quvchilarning qiziqishi uyg‘onadi, zarur savollar tug‘iladi va bilimlarni egallash uchun sabablar shakllanadi




Guruh a‘zolari o‘zlari tuzgan «Klaster» jadvali asosida mutafakkir ijodi haqida batafsil ma‘lumot beradilar.

Guruh ma‘lumotlari solishtiriladi va guruhlar rag‘batlantiriladi. Guruh talabalariga 4-topshiriq beriladi. Topshiriq yangi mavzuni hamda o‘tilgan mavzularni ham mustahkamlashga katta ahamiyatga egadir. Bu topshiriq ham interfaol usullardan biri «VENN» diagrammasidan foydalanish bilan boshlanadi.

«VENN» diagrammasida ikkita yoki uchta shoir yozuvchining o‘xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlashning 2-bosqichi «VENN» diagrammasi mavzusidagi asosiy ma‘noni anglashga yordam beradi. «VENN» diagrammasini tuzish uchun guruhdan ham, juftlikdan ham foydalanish mumkin, alohida-alohida berilsa ham bo‘ladi.



Uchala guruhning ham diagrammalari sinfda slaydlarga kiritiladi.

Guruhlar baholanadi.

O'qituvchi 4-topshiriqni yakunlab, 5-topshiriqni topshiradi.

Endi, aziz o'quvchilar, bilim va malakalarni umumlashtirish uchun «Sinkveyn» (oq she'r) yozish usulidan foydalanamiz. Bu 5 qatorlik she'rda Cho'lpon hayoti va ijodini qamrab oluvchi ma'lumotlar beriladi:

«Oq she'r» yozish uchun:

1. -Ot tanlanadi.
2. - Ikkita sifat tanlanadi
3. - Uchta fe'l tanlanadi
4. - His-hayajonli gap (to'rtta so'zdan iborat bo'lishi kerak)
5. -Birinchi so'zning sinonimi tanlanadi

«Navoiy», «Bobur», «Mashrab» guruhleri sevimli yozuvchimiz Cho'lpon haqida «Sinkveyn» tuzishga kirishadilar.

Guruhlar o'zlari yozgan she'rlarini ifodali o'qib, xulosalaydilar.

Cho'lpon

Iste'dodli, fikri jo'shqin.

O'qidi, yaratdi, nom qoldirdi.

Poeziyada-prozaik, prozada shoir

Oydanda go'zal

O'qituvchi 5-shartni yakunlab, qatag'on yillarida adabiyotimizning

A.Qodiriy, Cho'lpon va Fitratdek darg'alari yo'qotilgandan so'ng, ularning asarlarini o'qish ham siyosiy jinoyat hisoblanganligi, adabiyot olamida bir bo'shliq paydo bo'lganda Cho'lpon oldida marhum ustozlar o'rnini egallash vazifasi turganligini aytadi.

Cho'pon o'z oldiga tarix tomonidan qo'yilgan bu vazifasini sharaf bilan bajardi.

Dars davomida quyidagi slaydlardan foydalaniladi

Cho'lpon

O'zi o'lsa o'lar,
So'zi o'lmaydi,
Hamisha barhayot nasl insonlar,
Haqiqiy shoirning qabri
bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar.
Yo'qsa yo'qolmoqni o'rgating
menga,
Cho'lponning go'rini ko'rsating
menga.




Ta'limi



- Dastlabki ta'limni mahallasidagi maktabdan olib, tengdoshlaridan o'tkir xotirasi bilan ajralib turgan.
 - Qisqa fursatda "Qur'oni Karim" ni yod oladi.
 - Zamon talabiga ko'ra otasi uni rus-tuzem maktabida o'qitadi.
 - Rus-tuzem maktabida G'arb adabiyoti namoyondalari ijodi bilan tanishadi.
 - Keyin madrasada o'qiydi va arab, fors tillarini o'rganadi.
-

Hayot va ijodi

- Shoir, dramaturg, nosir – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yili Andijonda tug'ildi.
 - Otasi – Sulaymon Muhammad Yunus o'g'li ilmi, ma'rifatli ziyolilardan bo'lib, asli savdogarlik bilan shug'ullansada she'rlar yozib turgan.
 - Onasi – Oyshabibi maxsus tahsil ko'rmagan, ammo ertagu qo'shiqlarni biladigan ayollardan bo'lgan.
-

Ijodi uch muhim qismdan turadi





Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, zamonlar suronidan salomat o'tib kelayotgan barkamol tilimizning betakror obidasidir. Asar turkiy so'z imkonlarining zarif zuhuri sifatida e'zozli, e'tiborli, adibning milliy istiqlol tushunchasiga chiroq tutishi bilan esa g'oyat ardoqlidir. Garchi millat haqida uning erki haqida qayg'urgan jismu jonida shu dard shu o'y iztirobini tashigan matonatli mardlar shonli tariximizda behisob bo'lsa-da asrimiz tongining yorug' yulduzi Cho'lponning o'rni o'zgachadir.

Cho'lponning nazmiy va nasriy merosini ko'zdan kechirar ekanmiz asarlar zamiridagi shiddatli sog'inishlarni sezamiz. Adib shavkatli tarix yaratgan otalarimizning ustun vasflarini sog'inadi, hurriyat bayrog'ini yulduzlarga tikmoqni ko'zlagan asotiriy qaxramonini sog'inadi. o'zi bilan suhbat qurayotgan kishiga xuddi Miryoqub jadid musoxibining ko'zlariga tikilgani kabi «Men izlagan pir shu bo'lsa-ya?» degan o'y bilan ilhaq boqadi.

Asarni diqqat bilan o'qiganimizda Cho'lponning madaniyat, tarix va din haqidagi fikrlarini o'tmish va kelajak xususidagi tushunchalarni payqashimiz Sharq va g'arb madaniyati deya atalmish ikki ayri dunyoning o'zaro muvofiq kelmaydigan shartlari ostida yashash tufayli tug'ilishi muqarrar muammolar qarshisidagi Cho'lponning yechimlarini ilg'ashimiz mumkin. qanoatimcha, Cho'lponning «Kecha va kunduz» asari abadiy ziddiyat holida yashovchi ikki qutb: qullik va hurlik haqidadir. Yonada to'g'rirog'i bu ikki qutb orasida arosatda yashashga ko'nikkan, mute millatning ayanchli hayoti, fojeali qismati haqida. U favqulodda bir ichki mushohada bilan millatni so'rog'laydi, najotni daraklaydi. Uning taftish diapozonida bir iqlim bir muhit bir ohangni baham ko'rayotgan millatning butun tabaqalari aks etadi. hech kim so'roqdan qochib qutulmaydi. SHu tariqa inqirozning sabablari, sababchilari izlanadi. Xulosalar esa badiiy chizgilarda balog'at va fasohat-la zuhur topadi.

Tabiat hislarni uyg'otguvchi, fikrni ravshan, qalbni munavvar qilguvchi sohira maskan. Adibning «Kecha va kunduz» deb atalgan o'lmas romani: «Hamal keldi amal keldi», degan uyg'onish daragi, yangilanish nafasi bilan boshlanadi. Bu maqol tabiatninggina uyg'onishini emas, balki ijtimoiy hayotdagi yangilanishni

ham o'zida mujassam qilgan badiiy baquvvat unsuridir. Shu bilan birga, xalqning koinot qonuniyatlarini kuzatishi va turmush tajribalariga suyanishi asosida chiqargan xulosalarini ifodalovchi, tabiat va inson o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni mantiqiy umumlashtiruvchi xalq hukmi, asrlar osha sayqallangan hikmat namunasidir. SHu ma'noda mazkur maqolning asarga epigraf (boshso'z) qilib olinishi bejiz emas.

«Bu foniyl dunyoda o'z xotiniga xiyonat qilmagan erkak bormi o'zi?», «Har qalay, bu xotin menga hech narsa bermaganida ham roziman. Ko'zimni to'sib yotgan pardalarni olib tashladi-ku!», «Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyali, madaniy ovro'palikni solishtirib ko'rasiz. Farq er bilan osmon qadar! Darhol bilinadi». «Yarim kechada biz, ikki telba ta'qibdan qochgan o'g'riday Maskov ko'chalarida ot qo'yib ketdik». «Machitdan er-xotin bo'lib, uyga qaytganimizda soat ikkiga yaqinlashib qolgandi»...

Keltirilgan ushbu iqtiboslar-buyuk millatparvar adib Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidagi asosiy qahramonlardan biri-uddaburon Miryoqubning turli vaziyatlarda aytgan fikrlari. Ma'lumki, romanda XX asr boshlaridagi ishbilarmon odamlar toifasiga mansub Miryoqubning turli holatlardagi hayoti ham yoritilgan. Asar so'ngida uning bir jadid yigit bilan tanishuvi natijasida dunyoqarashi o'zgarishi, Miryoqubning o'ris xotin-Mariyaga uylanishi ham aks ettirilgan.

Miryoqub-ku, Cho'lpon tasvirlagan badiiy qahramon. Biroq XX asr boshlarida, xususan, 1920-30 yillarda ham ko'plab o'zbek yigitlarining rus xotin-qizlariga uylanishi uchrab turardi. Jumladan, Cho'lpon chiroyli rus ayoli bilan turmush qurib, hayotining ma'lum onlarini zavqli o'tkazgan. Rafiqasi Katya esa ilhom malikasi sifatida unda ijodiy ishtiyoq uyg'otgan.

An'analar uzoq asrlar davomida shakllanadi va millat butunligini vaqt to'fonlari ichida to'zg'ib ketishdan omon saqlovchi bir kuch, yomon ko'zdan saqlovchi bir tumor yanglig' ajdodlardan avlodlarga o'tib boradi. An'analar, odatda, og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Og'zaki shakli oilada farzandlar qulog'iga quyish orqali, yozma shakli esa badiiy asarlar orqali asrlardan-asrlarga etkaziladi. Urf-odatlar zamonga moslashuvchan bo'ladi. Zero

davr va odamlar mantig'iga, tafakkuriga moslasha oladigan an'analargina millatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Va u millat vakillari tomonidan ardoqlanadi, qadrlanadi.

Cho'lpon o'zining «Kecha va kunduz» nomli o'lmas asarida xalqimizning noyob qadriyatlaridan, go'zal urf-odatlaridan, inja rasmlaridan, nafis an'analardan bizni ogoh etadi. O'tgan asr avvalida ardoqlangan ayrim an'analar yangi asr kishisining dunyoqarashiga u qadar mos kelmasligi mumkin. Biroq, aksariyati bugun ham millatimizning estetik dunyoqarashini belgilovchi mezon sifatida yashab kelmoqda. Asarda ana shunday bir an'ana haqida muallif yozadi: «O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini-o'z halol juftini!--qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon—sharmu-hayo yuzasidan bo'lsamikan?—xotinini «Xadicha» deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar «labbay!» deydi, shundayda oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: «kattangni aytaman, kattangni!» deydi. Hatto shunda ham «Maryamni» demaydi...»⁹

Cho'lpon o'tgan asrning avvalida ta'kidlagan mazkur an'ana bugun ham ayrim hududlarda mavjud. Cho'lponing mahorati xalqona urflardan badiiy obrazlar yarata olishida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'na buning go'zal dalili: «Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurvonbibini hammavaqt «fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o'lguring qani?», «Fitna, puldan uzat!» Fitna so'zining lug'aviy ma'nosi, asosan, quyidagilardan iborat: 1. G'arazli maqsadga erishish yo'lida birovni qoralash uchun qilinadigan yashirin xatti-harakat. Fitna to'qimoq. Oraga fitna solmoq. 2. Ma'lum siyosiy maqsadga erishish uchun yashirin til biriktirish yo'li bilan biror shaxs yoki tashkilotga qarshi qilingan harakat. Fitna uyushtirmoq. 3. G'alamislik, ig'vogarlik bilan shug'ullanadigan; g'alamis, ig'vogar. Fitna odam.

«Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi». Bahor sevinchi go'yo ko'klam xabarchisi qaldirg'och kabi suyunchiga shoshadi,

⁹Cho'lpon «Asarlar» 3 jildlik. I-II jildlar. Toshkent.1993 y. 10-bet

ko'ngillarni qitiqlaydi. «YAna tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi». Adib tabiatni kuzatibgina qolmay, uni qalbida ilitayotganday, go'yo u bilan yuraklari bir ohangda urayotganday kayfiyat uyg'onadi kitobxonda. «Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi». Sochpopuk va mayda o'rilgan kokil...O'xshovchi va o'xshatiluvchi ham jonsiz, aslida. Lekin selkillash harakati tiriklikka, odamzodga xos holatlardandir. Ayniqsa, «tusha boshladi», «tushmoqda» emas, aynan «tushmoqqa boshladi» deyishining o'zida nafislik, erka bir ohang mavjud. Bu narsa adibning nafaqat tabiatni, balki so'z-iborani ham kuzata olishidan, oddiy ko'ringan hodisa va so'z zamiridagi injaliklarni ilg'ash iqtidoridan darak beradi. «Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi,o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik na'shasini kemira-kemira ilgari bosadilar».Mazkur jumlada muz va suv ham falsafiy ham psixologik majoz sifatida qo'llangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda. Pedagogika fani O'zbekistonda shaxs manfaati ustuvorligini e'tirof qilgan holda erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini bir butun o'rganadi. Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim amaliyoti o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi «Guruhlarda ishlash», «Aqliy hujum», «Burchaklar usuli», «Rolli o'yin» kabi bir qancha interfaol usullar bilan boyidi.

O'qitishning noan'anaviy shakllaridan bo'lmish hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metoddir. Hamkorlikdagi ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlarga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh

tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga «a'lo», «yaxshi» va «qoniqarli» o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon «kuchlilar» va «kuchsizlar» guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

Kichik guruhlarda ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- guruhlarga aniq ko'rsatmalar berish;
- ishtirokchilar topshiriqlarni to'liq bajarishi uchun etarlicha bilim va ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
- guruhlarning qoidani buzmagani holda ishlashini ta'minlash;
- guruhda kechayotgan har bir jarayonni baholab borish.

Ta'limning interfaol usullaridan biri bu «fikriy hujum» sanaladi. Fikriy hujum dars o'tish jarayonida guruhga biror bir muammoni hal etish uchun o'rta tashlash orqali mikroguruh a'zolarini mustaqil fikrlash, muammoni atroflicha mushohada etish orqali o'z nuqtai nazarini shakllantirishga qaratilgan usuldir.

«Tarmoqlar» metodi – o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga odatlantirish, ularning fikr doirasini kengaytirish, adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalanishga o'rgatishga qaratilgan. Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarning biror mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki fikrlarni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tizimlashtirishga o'rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda shu mavzu bo'yicha o'quvchilarning tasavvurlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Cho'pon asarlarini o'rganishda bu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Adabiy ta'lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda adabiyot o'qituvchilarining pedagogik mahorati darajasi har bir dars hamda o'rganilayotgan mavzu o'quvchilarga etkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv

negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiysi – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi.

Ta'limning jarayonini texnologik yondashuvga muvofiq tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega bo'lib, fan o'qituvchilarining ichki imkoniyatlari, shuningdek, ularning tashqi omillardan qay darajada foydalan olishlariga bog'liqdir. Shunday bo'lsada, biz bu o'rinda Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanini o'quvchilar tomonidan chuqur o'rganilishiga imkon beruvchi dars namunasi (loyihasi)ni keltirmoqchimiz.

Darsning maqsadi: Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani va unda ilagri surilgan g'oyalar muhitining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga erishish.

Xususiy maqsadlar:

- o'quvchilarga «Kecha va kunduz» romani, uning yaratilishi haqida nazariy ma'lumot berish;

- o'quvchilar tomonidan yurt ozodligi, inson erki va ularga erishish hayotiy ehtiyoj, ma'naviy zaruriyat ekanligini anglab etishishiga erishish.

Dars jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar:

O'quvchilarga Cho'lpon hayoti va ijodi, shuningdek, «Kecha va kunduz» asari borasidagi nazariy ma'lumotlarni berish.

O'quvchilarning asar mazmuni bilan to'la tanishishlariga erishish.

O'quvchilar tomonidan asar g'oyaviy yo'nalishi va echimi mohiyatining chuqur tushunib etishini ta'minlash.

O'quvchilardan asar qahramonlari(Zebi, Akbarali, Razzoq so'fi, eshon timsollari)ga nisbatan munosabatini shakllantirish.

O'quvchilarda asarda ifoda etilgan hayotiy voqelik negizida o'z aksini topgan ijtimoiy hodisa, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, unga barham berish yo'llari, shuningdek, yakuniy xulosa borasidagi qarashlarini qaror toptirish.

Darsning shakli: aralash dars.

Darsda qo'llaniluvchi metodlar: kichik guruhlarda ishlash («6x6x6» usuli), savol-javob, «Klaster», «Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish

texnologiyasi»)), debat, qiyosiy tahlil (fan o'qituvchilari dars jarayonida qo'llaniluvchi interfaol usullar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor etilganlar.

Dars jihozlari: akademik litseylarning uchinchi bosqichi «Adabiyot» majmuasi, Cho'lponning portreti, «Kecha va kunduz» romani, romandan olingan parchalar o'z aksini topgan matnlar (ish qog'oziga chop etilgan matnlar), o'zbek adabiyotshunoslari (O. Sharafiddinov, N. Karimov va boshqalar)ning adib ijodi bo'yicha bildirilgan fikrlari bayon etilgan lavhalar, Zebi monologi yozilgan audiokasseta (agar audiokasseta (magnitofon) mavjud bo'lmasa, ushbu monolog o'quvchilarning biri tomonidan bayon etilishi mumkin), jadval, tasvir va boshqalar.

Darsning borishi:

I. Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha o'quvchilarga nazariy ma'lumotlar berish. Ushbu jarayonning o'quvchilardan biri yoki bir nechta o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning bu boradagi harakatlari adibning portretini tengdoshlari e'tiboriga havola etish, shuningdek, Cho'lpon tomonidan yaratilgan asarlarni qay d etuvchi jadval yordamida olib boriladi.

II. Kichik guruhlarda ishlash («6x6x6» usuli). O'quvchilarning umumiy soni e'tiborga olingan holda ular 5 yoki 6 nafardan bir necha guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga «Kecha va kunduz» asaridan olingan parcha yozilgan matn bilan ishlaydilar. So'ngra guruhlar qayta shakllantiriladi. Bu jarayonda yangi guruhlarda avvalgi guruhlarining 1 nafar a'zosi bo'lishiga e'tibor beriladi. Yangi guruhning har bir a'zosi guruhning boshqa ishtirokchilariga o'zi o'rgangan matn mazmunini qisqacha hikoya qilib beradi. Shu tarzda o'quvchilar 6 yoki 7 ta parchaning mohiyati bilan 3 yoki 5 daqiqa ichida tanishib chiqadilar.

III..Klaster metodi («klaster» so'zi g'uncha, bog'lam ma'nosini anglatadi; metodni qo'llashda ma'lum mavzuning umumiy mazmunini ochib beruvchi asosiy so'zlardan iborat bog'lamlar hosil qilinadi) asosida ishlash. Dastlab sinf o'quvchilari teng miqdor asosida uchta yoki to'rtta guruhga bo'linadilar. Barcha guruhlariga bir xil topshiriq beriladi. Har bir guruh a'zolari kichik hajmli vatmanda yoki sinf yozuv taxtasida asar mohiyatini yorituvchi tasvini yarata olishlari lozim. Klasterni ifoda etishda yodga tushgan barcha «kalit» so'zlar

doira ichida ifoda etiladi, so'ngra ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikka asosan doiralar birlashtiriladi. Guruhlar tomonidan topshiriq bajarib bo'lingach, sinf ishtirokida har bir tasvirning qay darajada mantiqiy g'oyaga ega ekanligi muhokama etiladi. Eng yaxshi klasterni yarata olgan guruh g'olib deb topiladi. Bu tasvir quyidagi rasmda keltirilgan ko'rinishda bo'lishi mumkin

«Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish texnologiyasi») usuli asosida ishlash. O'quvchilar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh asarning badiiy, ijtimoiy va ma'naviy qimmatini aniq dalillar asosida ochib beradilar. Bu borada quyidagi jadvalni yaratish mumkin. (jadval o'quvchi tomonidan to'ldiriladi. 2-rasm).

«Kecha va kunduz» romani

Badiiy qimmati

Ijtimoiy qimmati

Ma'naviy qimmati

V. Debat tashkil etish. O'quvchilar o'rtasida asardan olingan taassurotlari bo'yicha bahs uyushtiriladi. Ularning e'tiboriga quyidagi savollar havola etiladi:

1. Sizning fikringizcha, agar Akbarali vafot etmaganda asar syujeti qanday kechar edi? 2. Siz qanday fikrdasiz, Zebini bunday qismatdan qutqarish mumkinmidi?

IV. Savol-javob asosida o'quvchilarning bilimlarini aniqlash.

Cho'lponning hayoti va ijodi haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?

Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani qanday asar?

Asarning bosh g'oyaviy yo'nalishi nimadang iborat?

Zebi (Akbarali, Razzoq so'fi, Eshon, Miryoqub) obrazi mohiyatini ochib bering.

Siz yozuvchining mahoratini qanday baholaysiz?

Insonparvarlik g'oyaviy yo'nalishini asarning qaysi o'inlarida ko'rish mumkin?

Asarning echimi nimadan iborat?

Asarning milliy istiqlolni ta'minlashdagi ahamiyati qanday?

Darsni tashkil etishda asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlariga qaratiladi. O'qituvchining dars jarayonidagi o'rni o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, maslahat berish, fikrlarini umumlashtirish va yakuniy xulosani bayon etishdan iborat bo'lishi lozim

Namunaviy dars ishlanmalari va metodik tavsiyalar.

Taniqli adabiyotshunos va metodist olim Q. Yo'ldoshev so'zlari bilan aytganda: «Adabiyot o'qitishning vazifasi har bir xalqni o'zigagina xos ma'naviy qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o'quvchilarga singdirish hamdir. Zero, o'z ma'naviyatini qanday qadriyatlarga tayanib shakllantirishni bilmagan shaxs xaritasiz noma'lum yurtga sayohat qilgan kishiga o'xshaydiki, ko'zlagan manzilini aniq tasavvur eta olmay uzoq sargardon bo'lish xavfi bor. Adabiy ta'lim o'z tarbiyalanuvchilarida milliy qadriyatlarga tayangan holda xulqiy sifatlarni shakllantirishday nozik yumushni uddalashi zarurdir... Xullas, adabiy ta'lim o'z oldidagi vazifalarni bekamu ko'st bajargan taqdirdagina barkamol shaxsni shakllantirishday ezgu maqsadga erisha oladi»¹⁰.

Darhaqiqat, jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi ko'p jihatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq ekanligi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ham ko'p marta ta'kidlangan. Mustaqillikni mustahkamlash, adolatli va ma'rifatli demokratik jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarni do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, birodarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ajdodlarimiz hamda avlodlarimizni bir-biriga tutashtirib, avlodlar davomiyligi va vorisligini ifodalab kelayotgan qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Badiiy asarlarda milliy qadriyatlarimizning qator ko'rinishlarini uchratish mumkin.

O'quvchilarning darsdagi mas'ulligini oshirish va ularda o'rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosan evristik usulda foydalaniladi. Biror asarni to'liq o'rganib, bo'lingandan keyin bahs dars o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchi asar bilan yaxshi va to'liq tanishmagan bo'lsa, berilgan muammoni to'g'ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar.

¹⁰ Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. Metodik qo'llanma. 7-sinf "O'zbek adabiyoti" darslik majmuasi uchun. Toshkent, "O'qituvchi", 1997..

O'z fikriga ishonmagan o'quvchi bahsga ham aralashib, faollik ko'rsata olmaydi. Baxs darslar o'quvchilarni fikrlashga, so'zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o'z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muxokama va munozara yuritishga o'rgatadi. O'quvchi-talabalar xaqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug'iladi. Xulosa shuki, adabiyot darslarining muvaffaqiyati o'qituvchining tayorgarligi, bilim saviyasigina emas, uning dars jarayonini tashkil qilishga ijodiy munosabatda bo'lishiga ham bog'liq.

X U L O S A

Ta'lim berishda asosiy maqsad o'quvchilar ongiga fan asoslarini puxta sirgdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotidagi har bir hodisaga ongli yondashishiga tarbiyalash, egallagan bilim va ko'nikmalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishdir. Bu jihatdan adabiyot darsi yosh avlodni jamiyatimiz olg'a surayotgan yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab, ko'p qirralidir. O'quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularga hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi, atrof muhit va inson xarakterining murakkabligini tushuntirish qobiliyatini, vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantiradi, rivojlantiradi. Ayniqsa, adabiyot darslari o'quvchilar ma'naviy dunyosini boyitishda muhim omildir. O'qituvchining dars o'tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va usullarni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir. Adibning ijodiy kamolot sari bosib o'tgan yo'li, ijodiy faoliyati biografik ma'lumotda o'ziga xos o'rin tutib, uning shaxsi, ichki dunyosi, ruhiy olami, qarashlari, ma'naviy e'tiqodi qay tarzda shakllanganidan tortib badiiy mahoratini egallashigacha bo'lgan hayot yo'li o'z aksini to'liqroq topadi. O'quvchi so'z ustasining kimligini, orzu-o'ylarini, intilishlarini tarjimai holning shu qismidan ko'proq bilib oladi. Demak, bu erda beriladigan ma'lumotlarning o'quvchi yoshlar uchun ma'rifiy ahamiyati katta. Ta'lim metodlarini tanlashda asosan ta'lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, ularning o'quv-biluv imkoniyatlari, ta'limning davomiyligi, moddiy-texnika ta'minoti va o'qituvchining mahorati muhim ahamiyatga ega. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va insoniy sifatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Ta'lim berish jarayonida esa ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli metodlarni qo'llash lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, ta'lim metodlarini maqsadli, o'rinli va to'g'ri tanlash tamoyili ta'lim samaradorligini kafolatlovchi omilga aylanadi.

Xullas, yozuvchining tarjimai holini va ijodiy faoliyatini o'rganish, bir tomondan, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga etkazish, ularni

milliy istiqlol mafkurasi, milliy ma'naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko'rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etish, eng muhimi, o'rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to'liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi; asarni o'qish uchun havas uyg'otadi.

O'qituvchi o'quvchilarga qo'shimcha adabiyot yoki manba bilan tanishish, ayrim adiblar haqida ma'lumot izlash, darsdan keyingi yoki sinfdan tashqari mustaqil ishlarida hamkorlikka sharoit tug'dirish, «Internetdan. saytdagi. mavzudagi maqolani o'qib kelish» yoki «Ma'rifat» gazetasi (boshqa jurnallar) ning. ... sonida. ... mavzudagi maqolani o'rganib kelish» mazmunida topshiriq bersa maqsadga muvofiqdir. Bu usul o'qituvchi va o'quvchida axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz Islom Karimov aytganiday, «O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak».

Bunday darajaga ko'tarilish uchun o'qituvchi nihoyatda katta mehnat qilishi kerak, shundagina u o'qitishni hayot va zamon nafasi bilan uyg'unlashtiradi, adabiyotning ta'sir kuchini-tarbiyaviy imkoniyatini ishga sola biladi, shu asosda o'qituvchilarning o'zini anglashiga rag'bat uyg'ota oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mazmuni har tomonlama etuk ma'naviyatli, ma'rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga etkazish xar bir ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya'ni, o'qituvchidan, yuksak iste'dod talab qiladilar. Bu iste'dod faqat o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir. Bilimdonlik, tajriba, kasbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Interfaol usullar o'qituvchi va o'quvchini darslik, kitob, gazeta va

jurnal, internet kabi qo'shimcha manbalarga murojaat qilishga, mavzu yuzasidan axborotlarni mustaqil izlash, to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Biz ushbu malakaviy ishimizda maktabdagi amaliyot jarayonidagi dars o'tish tajribalarimizdan kelib chiqib, Cho'lpon asarlarini o'rganishda bo'yicha adabiyot darslarida qanday usullardan foydalanish mumkinligi to'g'risida ba'zi mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashdik. 7-sinflarda Cho'lpon she'rlarini, 9-sinfda «Kecha va kunduz» romanining o'qitilishi yuzasidan baholi qudrat berilgan metodik tavsiyalarni talabalar o'z amaliyot jarayonlarida va adabiyot o'qituvchilari foydalanishlariga umid qilib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat , 2008,.
3. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
4. Yo'ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. Adabiyot, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, Sharq, 2009.
5. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. Metodik qo'llanma. 7-sinf «O'zbek adabiyoti» darslik majmuasi uchun. Toshkent, «O'qituvchi», 1997..
6. Yo'ldoshev Q, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. Adabiyot, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, 2006.
7. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent, 2010,
8. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM, 2000.
9. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan nashriyoti. 2006.
10. Tojiev A. Adabiyot darslarida suhbat. –T.: O'qituvchi, 1987.
11. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T: Yangi asr avlodi. 2006.
12. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. Toshkent, Yozuvchi nashriyoti, 1994,
13. O'zbek adabiyotidan zamonaviy darslar. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. /Tuzuvchilar A. Rafiev va boshq. –T.: O'zSilm. 1990. .
14. Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. Toshkent, 1997.
15. Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho'lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,
16. Cho'lpon «Asarlar» 3 jildlik. I-II jildlar. Toshkent.1993 y.
17. Cho'lpon. «Yana oldim sozimni». Toshkent 1992 y.
18. Cho'lpon. «Baxorni sogindim» «Yulduzcha». Toshkent.

19. Cho'lpon. «Kecha va kunduz» romani «Shark yuldo'zi» 1988 y. № 2-3.
20. Sharafiddinov O. «Cho'lpon». Toshkent 1991 y.
21. Sharafiddinov O. Cho'lponning ijodiy yili. «Shark yulduzi» 1988 y № 2.
22. Sharafiddinov O. «Ijod yuli». «Yoshlik» j. 1987 y № 1.
23. Mirvaliev S. «O'zbek adiblari». Toshkent.1993 y.
24. Turdiev Sh. «Tong yulduzi qismati» «Yoshlik» j. 1991 y № 3.
25. Eshonova Z. «Xaq yo'li albatta, bir o'tilgusidir». «Yoshlik» j. 1991 y. № 3
26. Mamajonov S. «Cho'lponning nasriy ijodi». «UTA». 1991 y № 1.
27. Mirkosimova M, Yuqori sinflarda Cho'lpon hayoti va ijodini o'rganish. «Til va adabiyot ta'limi» 1993 yil 2-son
28. Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. Toshkent, 1997.
29. Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho'lponning mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,.
30. www.pedagog.uz
31. www.tdpu.uz
32. www.Ziyonet.Uz